# Халқ сўзи

Ўзбекистон – келажаги буюк давлат

1991 йил 1 январдан чиқа бошлаган • www.xs.uz • E-mail: info@xs.uz • 2019 йил 2 июнь, № 113 (7343) Якшанба

Сайтимизга ўтиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг.


# ИСЛОҲОТЛАРДАН АСОСИЙ МАҚСАД – АҲОЛИНИ РОЗИ ҚИЛИШ, ТУРМУШ ФАРОВОНЛИГИНИ ЮКСАЛТИРИШ

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 1 июнь куни Тошкент вилоятида амалга оширилаётган ислоҳотлар, йирик лойиҳалар ва бунёдкорлик ишлари билан танишди.**



Давлатимиз раҳбари дастлаб Ангрен шаҳрига ташриф буюрди.

Президентимизнинг аввалги ташрифи чоғида белгилаб берилган вазифалар асосида Ангренда улкан бунёдкорлик ишлари амалга оширилди. “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти томонидан Ангрен темир йўл вокзали барпо этилди.

Ангрен — транспорт коммуникациялари жиҳатидан муҳим стратегик шаҳар. Тошкентни водий билан боғловчи темир йўл қурилганидан кейин унинг аҳамияти янада ортди. Лекин вокзал йўқлиги боис йўловчилар узоқ станцияларга боришга мажбур бўларди. Янги вокзал шаҳар аҳолиси ва туристлар учун катта қулайлик яратади.

Вокзалда бир вақтнинг ўзида 100 йўловчига хизмат кўрсатиш имконияти мавжуд. Кутиш зали, она ва бола хонаси, тиббий пункт, овқатланиш ва савдо шохобчаларида барча шароит яратилган.

Давлатимиз раҳбари янги вокзални кўздан кечирди.

Шу ерда вилоятда туризм, энергетика, кимё, металлургия соҳаларидаги истиқболли лойиҳалар тақдимоти ўтказилди.

Тошкент вилояти сайёҳлик соҳасида улкан салоҳиятга эга. Вилоятда 930 та сайёҳлик объекти, 10 минг 185 ўринли 155 та меҳмонхона ва дам олиш маскани мавжуд. Ўтган йили вилоятга 1 миллион 368 минг сайёҳ келган. Бу аввалги йиллардагига таққослаганда 3 баробар кўп.

2018 йилда вилоятда 12 та меҳмонхона ва дам олиш маскани, 7 та спорт-соғломлаштириш мажмуаси, 5 та тематик боғ барпо этилди. Туризм салоҳияти ва инфратузилмасини янада ривожлантириш мақсадида жорий йилда қиймати 432,9 миллиард сўм бўлган 50 та лойиҳани амалга ошириш режалаштирилган.

Шавкат Мирзиёев “Чорвоқ” эркин туристик зонасида халқаро дам олиш масканлари, Билдирсой, Чимён ва Нанай ҳудудларида Франция компаниялари консорциуми иштирокида тоғ-чанғи курорти барпо этиш лойиҳаларига алоҳида аҳамият қаратди. Айни пайтда ушбу инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш ишлари бошланган.

Вилоятнинг сўлим гўшалари ва шифобахш ўсимлик дунёсидан самарали фойдаланиб, ноанъанавий тиббиёт масканлари, санаторий ва спа соғломлаштириш марказлари ташкил этилади. Мазкур янги сайёҳлик йўналишлари, шунингдек, электропоездда ташкил этиладиган бир кунлик саёҳат маршрутлари келажакда вилоятни туристлар учун минтақадаги энг оммабоп ҳудудга айлантиради.

Тошкент вилоятининг рекреацион имкониятларидан кенг фойдаланиш мақсадида ўрмон фонди ерлари ва туризм салоҳияти юқори ҳудудларда табиий муҳитга ва ҳайвонот оламига путур етказмаган ҳолда, ривожланган давлатлардагидек туризм объектларини барпо этиш, экотуризм ва сайёҳликнинг бошқа турларини кенг ривожлантириш кўзда тутилган.

Вилоят йил давомида сайёҳларни қабул қилиш имкониятига эга. Зангиота зиёратгоҳи, Чиноз балиқлари, Бўканинг лаззатли таомлари, Оҳангарон туманидаги археологик ёдгорликлар, Паркент ва Ангреннинг экстремал тоғ ҳудудлари, Бўстонлиқ туманининг бетакрор табиати зиёрат, гастрономик, агро, эко, экстремал туризмни йўлга қўйиш имконини беради. Ушбу имкониятлардан фойдаланиб, вилоятда тўрт фаслда сайёҳлар дам олишига мўлжалланган “олтин ҳалқа” туристик йўналишини ташкил этиш режалаштирилган. Бу сайёҳлик йўналиши меҳмонларни вилоятнинг бетакрор имкониятлари билан таништириш ва дам олишида улкан қулайлик яратади.

Президентимиз лойиҳаларнинг иқтисодий самарадорлигига эътибор қаратди. Йирик инвестиция лойиҳаларини янада кенгайтириш, вилоятнинг туристик салоҳиятини тарғиб қилиш юзасидан топшириқлар берди.

Президент Ангрен шаҳридаги 2-ички ишлар бўлимини бориб кўрди.

Бўлим учун янги бино барпо этилган. Тезкор навбатчилик қисми ва хизмат хоналари замонавий технологиялар билан жиҳозланган. Профилактика, тергов, жиноят-қидирув бўлинмалари, паспорт хизмати, психолог фаолияти йўлга қўйилган.

Давлатимиз раҳбарининг жорий йил 29 майдаги қарорига мувофиқ Тошкент вилоятида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари куч ва воситаларини бошқаришнинг сифат жиҳатидан янги тизими жорий этилмоқда. Ушбу эксперимент доирасида вилоят, туман ва шаҳар даражасидаги тузилмаларни мақбуллаштириб, ходимларнинг 86 фоизини қуйи бўғинга тушириш белгиланган. Ангрен шаҳрида ҳам бу борадаги ишлар бошлаб юборилган.

Жиноятчилик жиловланса, халқ хотиржам, давлатдан рози бўлади. Бунинг учун барча ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари янада жипс ишлаши, аҳолига яқин бўлиши керак. Шунда ҳуқуқбузарликларнинг олди олиниб, жиноятга ўрин қолмайди, деди Президент.

Ички ишлар, Миллий гвардия, прокуратура, суд ва бошқа органлар ҳамкорлигини кучайтириш, бўлинмаларнинг тезкорлигини ошириш ва максимал даражадаги ҳаракатчанлигини таъминлаш бўйича кўрсатмалар берилди.

Шавкат Мирзиёев Оҳангарон шаҳар Давлат хизматлари марказининг янги биносини кўздан кечирди.

Шаҳарда 37 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қилади. 2018 йил давомида марказ томонидан жами 7382 та хизмат кўрсатилган бўлса, бу кўрсаткич 2019 йилнинг биринчи чорагида 6 мингдан зиёдни ташкил қилди. Бу халқимизда давлат хизматларига эҳтиёж ва талаб кундан-кун ортиб бораётгани, янгича ёндашувнинг фойдали жиҳатлари амалда ўз ифодасини топаётганидан далолат беради.

Марказда жисмоний ва юридик шахсларга кўрсатиладиган хизматлар тури 100 дан ошди. Бу ерда эски ҳайдовчилик гувоҳномасини янгисига алмаштириш мумкин, нотариус, суғурта, кадастр, ФҲДЁ ва бошқа хизматлар мавжуд.

Мижозларга қулайлик яратиш мақсадида бинода болалар ўйингоҳи, тиббиёт хонаси, кутубхона, ошхона, инвесторлар учун махсус хоналар ва бепул Wi-Fi алоқаси ташкил этилган.

Давлатимиз раҳбарининг 2019 йил 14 майдаги “Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонига, асосан, ушбу марказда Бош вазир қабулхонаси фаолияти йўлга қўйилди.

Президентимиз аҳоли кўп мурожаат қилаётган масалаларни ўрганиб, шунга тааллуқли шароитларни яхшилаш, талаб этиладиган ҳужжатларни камайтириб бориш зарурлигини таъкидлади. Давлат хизматлари маркази тизимидан фойдаланган ҳолда маҳалла идораларида ҳам ҳужжатлар билан ишлашни такомиллаштириш юзасидан тавсиялар берилди.

Шавкат Мирзиёев Оҳангарон шаҳридаги “Қалдирғоч” мактабгача таълим муассасасига ташриф буюрди.

Нўғойқўрғон маҳалласидаги бу боғча 160 ўринга мўлжалланган. У яқинда фойдаланишга топширилган. Муассасада 4 та асосий ва 3 та қисқа муддатли гуруҳлар фаолият кўрсатади. Ёзги айвонча, чўмилиш ҳавзаси, футбол майдончаси, спорт ва мусиқа заллари мавжуд. Бу ерда 32 нафар педагог ва тарбиячи меҳнат қилади.

Мактабгача таълимга эътиборни янада кучайтиришимиз керак. Болалар айни боғча ёшида ҳамма нарсани тез ва осон ўзлаштиради, бир умрга эслаб қолади. Халқимизнинг “бўладиган бола — бошидан”, деган нақлида чуқур маъно мужассам. Шунинг учун бу тизим билан боғлиқ масалалар доимий эътиборимизда бўлиши зарур, деди Президент.

Оҳангарон туманининг нуфуси 94 мингдан зиёд кишини ташкил қилади. Улар учун муносиб шароит яратиш, бандлигини таъминлаш кун тартибидаги асосий ва доимий масалалардан. Хусусан, туманда янги ишлаб чиқариш корхоналари фойдаланишга топширилмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг ташрифи арафасида туманда “Building innovation” корхонаси қуриб битказилди. Бу ерда бир неча турдаги оддий пишиқ ғишт, сопол блок каби маҳсулотлар ишлаб чиқарилади. Қиймати 36,1 миллион доллар бўлган корхонага Германия, Австрия, Греция, Испания, Япониядан замонавий ускуналар келтирилган. У йилига 112 миллион донадан зиёд турли ўлчамдаги пардозбоп ғиштлар ишлаб чиқариш қувватига эга. Экспорт ҳажми 3 миллион долларни ташкил қилади.

Корхона маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми ва сифати бўйича Марказий Осиёда етакчи ҳисобланади. Яна бир жиҳати — техника ва ускуналар энергия тежамкор бўлиб, 10 — 15 фоиз камроқ қувват сарфланади. Хом ашё туманнинг ўзидан олинади. Шунинг учун таннарх нисбатан камроқ.

Мутахассисларнинг айтишича, ишлаб чиқарилаётган пардозбоп ғиштлар узоқ йиллар ўз рангини сақлаб туради. Бу маҳсулотлардан фойдаланиш шаҳар ва қишлоқларимиз қиёфасини янада кўркамлаштиришга хизмат қилади. Кейинги босқичда керамик блоклар, панеллар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш режалаштириляпти.

Президентимиз корхонадаги иш жараёнини кўздан кечирди, ишчилар билан мулоқот қилди. Маҳсулот турини кўпайтириш юзасидан тавсиялар берди.

Шу ерда Тошкент вилоятини ижтимоий юксалтириш дастури, инфратузилмани яхшилаш, 2019 — 2022 йилларда тўқимачилик ва трикотаж саноатини ривожлантириш, чарм, пойабзал ва жунни қайта ишлаш, “Оҳангаронцемент” АЖ томонидан цемент ишлаб чиқаришга оид қатор лойиҳалар тақдим этилди.

Маълум қилинганидек, Россиянинг “Евроцемент груп” компанияси билан ҳамкорликда “Оҳангаронцемент”да йиллик қуввати 3 миллион тонна цементга тенг бўлган 160 миллион долларлик лойиҳа амалга оширилмоқда. У якунига етгач 200 иш ўрни яратилади, йилига 17 миллион долларлик маҳсулотни экспорт қилиш имконияти яратилади.

Бундан ташқари, чарм, пойабзал ва жунни қайта ишлаш бўйича 18 та истиқболли лойиҳа амалга оширилмоқда.

Президент мутасаддиларга лойиҳаларни ўз вақтида ва сифатли якунлаш бўйича топшириқлар берди.

Шавкат Мирзиёев Бўка туманидаги “Саркор” фермер хўжалиги даласида пахта ва ғалла ривожини кўздан кечирди.

Давлатимиз раҳбари фермерлар, қишлоқ хўжалиги мутасаддилари билан мулоқот қилди. Кейинги йилларда пахта толасини юртимизда қайта ишлаш 30 фоиздан 70 фоизга етказилгани бу соҳада инқилоб бўлгани таъкидланди.

Биз қишлоқ хўжалигида илм, инновацияларни қўлламаганимиз учун ерни “чарчатиб”, унумдорликни йўқотиб қўйдик. Шунинг учун қишлоқ хўжалигини таркибий ўзгартириб, маҳсулотларнинг харид нархини оширдик. Манфаатдорлик бўлсагина, интилиш, натижа бўлади, деди Президент.

Вилоятда 2019-2020 йилларда қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга ошириладиган лойиҳалар тақдимотида боғдорчилик, чорвачилик, логистика маркази ва мевасабзавотчилик кластер тизимини йўлга қўйиш масалалари ҳақида сўз борди. Ушбу даврда 366 та лойиҳа амалга оширилиб, 15 мингга яқин иш ўринлари ташкил этилиши режалаштирилган.

Вилоятда озиқ-овқат саноати жадал ривожланмоқда. Мева-сабзавот, гўшт, сут маҳсулотларини қайта ишлаш натижасида экспорт ҳажми кескин ошади, тармоқда даромадлар кўпаяди.

Президентимиз “Solanum agro” кўп тармоқли уруғчилик агросаноат кластери маҳсулотлари намуналарини кўздан кечирди. Асосан, картошка, сабзавот, полиз маҳсулотлари, соя етиштириш ва уруғчиликка ихтисослаштирилган кластер 4,5 минг гектарга яқин ер майдонига эга, 500 дан зиёд ишчилар меҳнат қилади. Йилига 14 минг тонна картошка фриси, 4 минг 400 тонна картошка кукуни, 5 минг тонна қадоқланган маҳсулот тайёрланиб, экспортга ҳам йўналтирилади.

Паркент туманида мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш, улардан пюре ва шарбатлар тайёрлаш маркази ташкил этилмоқда. Бунинг учун 5 миллион доллар миқдорида хориж инвестицияси жалб қилинди. Бу ерда йилига 20 миллион дона қадоқланган пюре ва шарбатлар тайёрланади.

Давлатимиз раҳбари мазкур лойиҳаларнинг амалга оширилиши вилоят қишлоқ хўжалиги учун муҳим экани, кластер тизимини кенгроқ жорий этиш янада сердаромад бўлишини таъкидлаб, лойиҳаларни ўз вақтида ва сифатли амалга ошириш юзасидан мутасаддиларга топшириқлар берди.

Бўка тумани давлатимиз раҳбарининг ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича беш муҳим ташаббусини ҳаётга жорий этиш юзасидан намуна қилиб олинган. Бугунги кунда ушбу ташаббуслар ижроси бўйича бошланган ишлар бўкаликлар ҳаётига том маънода янги руҳ олиб кирди.

(Давоми 2-бетда).

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Матбуот хизмати сурати.**

## Кун иқтибоси:

**Дональд ТУСК, Европа кенгаши Президенти:**



***— Ўзбекистон ва Президент Шавкат Мирзиёев минтақада анча яхшиланган ҳамкорликда катта роль ўйнайди.***

***Европа Иттифоқи Ўзбекистон ва бутун Марказий Осиё билан мустаҳкам ҳамда жадаллаштирилган ҳамкорликнинг тарафдоридир.***

# ОРОЛ МУАММОСИ ЕВРОПА ИТТИФОҚИ ДИҚҚАТ МАРКАЗИДА

*Мамлакатимизда амалий ташриф билан бўлиб турган Европа кенгаши Президенти Дональд Туск БМТ шафелигидаги Оролбўйи минтақаси учун инсон хавфсизлиги бўйича кўп томонлама шериклик траст фондининг Орол денгизи қуриши билан боғлиқ муаммоларни бартараф этишга бағишланган тақдимоти билан танишди.*

Президентимиз Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқида Орол фожиаси нафақат Ўзбекистон, балки бутун минтақа учун катта хавф туғдираётганини таъкидлаган эди. 2018 йил 27 ноябрь куни эса БМТ Бош қароргоҳида Оролбўйи минтақаси учун инсон хавфсизлиги бўйича кўп томонлама шериклик траст фонди тақдимотига бағишланган юқори даражадаги анжуман бўлиб ўтганди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 январда қабул қилинган “Бирлашган Миллатлар Ташкилоти шафелигида Оролбўйи минтақаси учун инсон хавфсизлиги бўйича кўп томонлама шериклик траст жамғармаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори асосида жамғарманинг самарали ишлаши учун қулай институционал, ҳуқуқий ва молиявий муҳит яратиш бўйича амалий чора-тадбирлар белгиланди.

➡ 2

## Фармон ва ижро

### Бош вазир қабулхонаси:

# Ишбилармонлар мурожаатларини кўриб чиқишнинг янги механизми

**Шу йил 1 июндан мамлакатимизнинг барча ҳудудида Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг Тадбиркорлар мурожаатларини кўриб чиқиш қабулхоналари иш фаолиятини бошлади.**

Кейинги пайтларда юртимизда аҳолини бизнесга кенгроқ жалб этиш, тадбиркорлик ҳаракатини ривожлантириш учун зарур барча шарт-шароит яратиб берилмоқда. Бироқ амалиётда ишбилармонларнинг ўз фаолияти давомида айрим муаммоларга дуч келаётгани ҳам бор гап. 2019 йилнинг биринчи чорагида Президент Халқ қабулхоналарига тадбиркорлардан 16 мингта мурожаат келиб тушгани шундан далолат беради, албатта.

➡ 2

## Долзарб мавзу

# ЭНГ КАМ ОЙЛИК ИШ ҲАҚИ ОШИРИЛМАДИ

## БАЛКИ, МАЗМУНАН БИР ХИЛ ТУШУНЧАЛАРГА ОЙДИНЛИК КИРИТИЛДИ

2019 йил 21 май куни Президентимиз томонидан “Меҳнатга ҳақ тўлаш, пенсиялар ва бошқа тўловлар миқдорларини аниқлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармонга имзо чекилди. Очиғи, шундан сўнг кўпчиликда “энг кам иш ҳақи кўпайтирилибди” қабилидаги фикрлар, муносабатлар пайдо бўлди. Хўш, аслида ҳам шундайми? Нима ўзгарди, қандай янгилик жорий этилди? Қуйида қабул қилинган ҳужжат мазмун-моҳияти ва аҳамияти хусусида тушунча бериш орқали шу саволларга жавоб топамиз.

Шу пайтгача республикамизда иш ҳақи, солиқ ёки бошқа мажбурий тўловлар, давлат божи, йиғимлар, жарималар, шунингдек, пенсия ҳамда унга устамалар миқдорини аниқлашда умумий мезон сифатида “энг кам ойлик иш ҳақи” ибораси қўлланилар эди. Жамиятимизда ижтимоий муҳофазани таъминлаш мақсадида иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда олиб борилган ислоҳотларнинг дастлабки босқичларида ягона умумий кўрсаткичдан фойдаланиш барча муҳим кўрсаткичларни синхрон ва пропорционал ошириш зарурати билан асосланган. Оддий қилиб айтганда, энг кам ойлик иш ҳақи оширилганда нафақа, пенсия, божлар, жарима ва бошқа тўловларнинг мутлақ миқдорлари ҳам кўпайган.

Бироқ ҳозир энг кам ойлик иш ҳақини кўплаб тўловлар миқдорини аниқловчи умумий мезон сифатида қўллаш жамиятимизни ривожлантиришнинг асосий стратегик йўналишларини амалга оширишни таъминловчи, иқтисодиётнинг “нозик созлаш” механизмларидан фойдаланиш имкониятини бермаяпти.

➡ 2

# ИСЛОҲОТЛАРДАН АСОСИЙ МАҚСАД — АҲОЛИНИ РОЗИ ҚИЛИШ, ТУРМУШ ФАРОВОНЛИГИНИ ЮКСАЛТИРИШ

(Давоми. Бошланиши 1-бетда).

Биринчи ташаббус доирасида ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишини ошириш, истеъдодини юзага чиқариш мақсадида 280 га яқин тўгарак ташкил этилди. Бир пайтлар фаолияти тўхтаб қолган маданият марказлари, кутубхоналар қайта ишлай бошлади. Мактаблардаги тўгаракларни мусиқа асбоблари билан таъминлаш чоралари кўрилмоқда. Булар орқали тумандаги 10 мингга яқин ўғил-қизлар санъат йўналишларига қамраб олинади.

Иккинчи ташаббус асосида фарзандларимизни жисмоний чиниқтириш, спортдаги қобилиятини намоён қилиши учун зарур шароит яратиш мақсадида мактаблардаги спорт тўгаракლари 35 тадан 64 тага етказилди. Маҳаллалардаги спорт майдончалари таъмирланмоқда. Ровот, Катта Ровот, Навобод маҳаллаларида тадбиркорлар томонидан замонавий футбол ва волейбол майдончалари барпо этилмоқда.

Учинчи ташаббус бўйича тумандаги барча мактабларни компьютер техникаси ва юқори тезликдаги интернет билан таъминлаш чоралари кўрилмоқда. Туман марказида яқинда ташкил этилган Рақамли технологиялар ўқув маркази ёшларнинг, умуман, аҳолининг компьютер саводхонлигини оширишга хизмат қилади.

Тўртинчи ташаббус доирасида туманда "Китоб карвони" тадбирлари ташкил этилиб, 20 мингдан зиёд бадиий китоблар аҳоли, жумладан, ёшларга совға қилинди. 5 та маҳаллада кутубхона ташкил этилди. "Ёш китобхон", "Китобхон оила" танловлари ўтказилмоқда.

Бешинчи ташаббус — хотин-қизларни иш билан таъминлашга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу мақсадда Бўстон, Чавлисой, Рамадон, Катта Ровот маҳаллаларининг ҳар бирида 300 иш ўрнига эга 4 та тикувчилик корхонаси барпо этилди. Яна иккита тикувчилик цехи фойдаланишга топширилиш арафасида.

Давлатимиз раҳбари Бўстон маҳалласи мисолида туманда беш муҳим ташаббусга ҳамоҳанг амалга оширилган ишлар билан танишди.

Бўстонда ҳам Жиззах вилоятининг Манас қишлоғи, Гагарин шаҳарчасида бўлгани каби улкан бунёдкорлик ишлари бажарилди. Маҳалла марказидаги Ёшлар боғида ўғил-қизлар волейбол, баскетбол, шахмат-шашка, стол тенниси билан шуғулланади, аттракционлар, рақс майдони, интернет-кафеда бўш вақтини мазмунли ўтказади. Боғдаги ватанпарварлик бурчаги ёшлар қалбида фидойилик, жасурлик ҳиссини улғайтиришга хизмат қилади.

Маҳаллада Халқ кутубхонаси ташкил этилди, гузар қад ростлади. "Бўстон арена" стадиони реконструкция қилинди. Бу ерда 100 дан зиёд ўқувчи-ёшлар футбол билан шуғулланади.

Илгари ҳудуд аҳолиси оддий ташхис учун ҳам 15 километр йўл босиб, туман марказига боришга мажбур эди. 1960 йилда қурилган 7-қишлоқ оилавий поликлиникаси мукаммал таъмирланиб, зарур тиббий асбоб-ускуналар билан жиҳозлангани бу муаммога чек қўйди. Шифо маскани бешта маҳалладаги 14 мингдан зиёд аҳолига хизмат кўрсатади.

Шавкат Мирзиёев поликлиникадаги шароитни кўздан кечирар экан, аҳолини тиббий хизмат билан тўлиқ қамраб олиш, уйма-уй юриб, одамлар саломатлигини муҳофаза қилиш зарурлигини алоҳида таъкидлади.

Давлатимиз раҳбари "Бўстон барака чеварлари" МЧЖга қарашли тикувчилик цехида ишлаётган хотин-қизлар билан суҳбатлашди.

Менинг ниятим сизларни рози қилиш, аёлларнинг чарақлаган бахтли кўзларини кўриш. Сизлар хурсанд бўлсангиз, оилаларингиз хурсанд бўлади, болаларнинг дунёқараши, маънавияти ўзгаради, деди Президентимиз.

Гузардаги қаровсиз кинотеатр биноси таъмирланиб, замонавий маданият марказига айлантирилди. Бу ерда рақс, доира, рубоб, тасвирий санъат, фортепьяно тўгараклари ташкил этилди. Натижада маҳалладаги 7 ёшдан 17 ёшгача бўлган болалар қамраб олинди. Тўгаракларда халқ артистлари, таниқли санъаткорлар маҳорат дарслари ўтказади.

Президентимиз тўгаракларга қатнаётган ўғил-қизлар билан суҳбатлашди. Тумандаги 27-умумтаълим мактаби 3-синф ўқувчиси Фазилат Ёқубова беш муҳим ташаббусга бағишланган шеърини ўқиб берди. Давлатимиз раҳбари Фазилатга яхши таълим-тарбия, ижодий муҳит ва шароит яратиб бергани учун унинг отасига автомобиль совға қилинишини айтди. Унинг ўзига эса уйида кутубхона очиб, "Фазилат" деб номлашни таклиф қилди. Маданият саройида тарбияланаётган болалар учун "Келажак ниҳоллари" ансамбли ташкил этиш ва жамоага автобус совға қилиш бўйича топшириқ берди.

Бўка йиллар давомида эътибордан четда қолиб келаётган эди. Икки ой ичида бу ерда амалга оширилган ишлар туманни барчага танитди. Бу хайрли ишларнинг бошланиши бўлсин, деди Шавкат Мирзиёев.

Президентимиз Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан Бўка тумани марказида барпо этилган Маданият ва маърифат экопаркини бориб кўрди.

Экопаркда 400 ўринли амфитеатр, 10 минг китоб фондига эга кутубхона, китоб мутолаа қилиш учун соябонлар, спорт майдончалари, book-cafe, кибер спорт маркази, югуриш ва велосипед йўлакчалари, болалар ўйингоҳлари, Wi-Fi ҳудудлар барпо этилган. Энг замонавий қулайликларни мужассам этган экопарк бўкаликларга муносиб туҳфа бўлди.

Кейинги пайтлардаги ҳаракатларимиз натижасида китоб чоп этиш кўпайди. Эндиги вазифа уни ўқийдиган китобхонни тарбиялаш. Қишлоқ, маҳалла, туманларда кутубхоналар қуряпмиз. Лекин китобни оилаларга қандай киритамиз? Бу қийин масала. Шу боис, ўқувчига ёшига қараб қайси асарни тавсия этамиз, қандай етказамиз — бунинг методикасини ишлаб чиқиш керак. Ёшларни китобга ўргатсак, миллатни эъзозлаган бўламиз, деди Президентимиз.

Экопаркда ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш, бу ерда бутун йил давомида шеърхонлик кечалари, ранг-баранг маданий тадбирлар уюштириш, беш ташаббусни ёшларимизнинг ғурур-ифтихорига айлантириш зарурлиги таъкидланди.

**Зиёдулла ЖОНИБЕКОВ,**
**Матназар ЭЛМУРОДОВ,**
**Улуғбек АСРОРОВ,**
***ЎзА мухбирлари.***

Бош вазир қабулхонаси:

# Ишбилармонлар мурожаатларини кўриб чиқишнинг янги механизми

1

Таҳлилларга қараганда, муаммолар кўп ҳолларда давлат органларининг тадбиркорлар билан тўғридан-тўғри мулоқоти йўлга қўйилмагани оқибатида келиб чиқмоқда. Негаки, шу пайтгача тадбиркорлар тегишли давлат органлари билан мулоқот қилишлари учун шаффоф тизим йўқ эди. Давлатимиз раҳбарининг жорий йил 14 майдаги "Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармонига мувофиқ, бу бўшлиқ тўлдирилди. Яъни ҳар бир туман (шаҳар), вилоятда Бош вазирнинг Тадбиркорлар мурожаатларини кўриб чиқиш қабулхоналари ташкил этилди.

Айтиш жоизки, ушбу янги тузилма ишбилармонлик муҳитини яхшилаш, тадбиркорларнинг янги синфини шакллантириш, инвестициялар оқимини кўпайтиришда муҳим механизмга айланиши кутилмоқда. Зеро, унинг олдига тадбиркор ва инвесторларнинг мурожаатларини ўрганиш, бизнес фаолияти давомида дуч келаётган муаммоларни ҳал этиш вазифаси қўйилган.

## Очиқ ва амалий учрашувларга киришилди

Янги тизимнинг мазмун-моҳиятини тадбиркорларга етказиш, энг асосийси, мурожаатларни кўриб чиқишда шаффофлик ва тезкорликни таъминлаш мақсадида Савдо-саноат палатаси раиси ҳамда адлия вазири раҳбарлигида республика ишчи гуруҳлари тузилгани диққатга сазовор. Улар иштирокида чекка ҳудуд ва туманларда тадбиркорлар билан очиқ, амалий учрашувлар ўтказиш бошландики, натижада ишбилармонларни қийнаб келаётган кўплаб муаммолар жойида ҳал этилмоқда.

Савдо-саноат палатаси раиси Адҳам Икрамов раҳбарлигидаги биринчи Республика ишчи гуруҳи тадбиркор ва ишбилармонлар муаммоларини ўрганишни Сурхондарё вилоятидан бошлади.

Таъкидлаш керакки, бугунги кунда ҳудуднинг ўзига хос хусусиятлари ва имкониятларидан келиб чиқиб, хориж инвестициялари иштирокида замонавий корхоналар ташкил этиш, саноатнинг янги турларини ўзлаштириш орқали аҳоли бандлигини таъминлаш, вилоят экспорт салоҳиятини оширишга жиддий эътибор қаратилмоқда. Бунинг самарасида шу йилнинг дастлабки уч ойида 23,6 миллион АҚШ долларилик тўғридан-тўғри инвестициялар жалб этилиб, 42 та лойиҳа амалга оширилди. Булар саноат, қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш ва сервис каби иқтисодиётнинг муҳим тармоқлари улушига тўғри келгани диққатга молик жиҳатдир.

Эътиборлиси, илгари одамлар, асосан, ижтимоий кўмак, моддий ёрдам сўраб мурожаат қилган бўлса, эндиликда бизнес фаолиятини йўлга қўйиш учун ташкилий-молиявий мадад сўрамоқда. Бу аҳолида боқимандалик кайфияти йўқолиб, ишбилармонликка иштиёқ кучайиб бораётганини кўрсатади. Мана исботи: 2018 йил давомида вилоят бўйича 2781 янги корхона рўйхатга олинган бўлса, ушбу кўрсаткичга жорий йилнинг атиги беш ойидагина эришилди.

Бироқ бизнес вакилларининг барчасида ҳам иш силлиқ кечаётгани йўқ. Амалиётда кўплаб муаммоларга дуч келиняпти. Масалан, вилоятдаги ишбилармонлар мурожаатларининг катта қисми ер ажратиш, бино олиш юзасидан бўлмоқда. Термиз туманидаги "Аиша Малак Транс" масъулияти чекланган жамияти раҳбари Маҳлиё Турдимуродова ҳам жой масаласида қийналмоқда.

— Корхонамиз тикувчиликка ихтисослаштирилган бўлиб, 10 нафар хотин-қиз иш билан таъминланган, — дейди у. — Биз тайёрлаётган кўрпа-тўшак, махсус кийим-кечаклар, спорт ва оқшом либосларимизга бозорда талаб катта. Аммо ижарама-ижара юриб, мижозларимизни ҳам, малакали ишчиларни ҳам йўқотиб қўймоқдамиз. Ижарага ойига 2,5 миллион сўм тўланиши туфайли айланма маблағ қолмаяпти. Бугунги учрашувда ер майдони ёки бўш турган бино ажратишда ёрдам сўраб мурожаат қилдим. Агар бу муаммоимиз ҳал этилса, фаолиятимизни кенгайтириб, қўшимча иш ўринлари ҳам очамиз.

## Кўтарилган масалалар қайси соҳаларга тегишли?

Тадбиркор ва инвесторлар мурожаатлари, асосан, ер ажратиш, газ, электр ва сув таъминоти, қишлоқ хўжалиги, кредит, солиқ масалаларига тааллуқли. Афғонистонлик инвестор Муҳаммадамин Муҳаммаджавидов солиқ соҳасида тушунмовчиликка дуч келганини айтади.

— Мен якка тартибдаги тадбиркор сифатида фаолият юритиб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорти билан шуғулланаман, — дейди у. — Биргина ўтган йили сурхондарёлик деҳқон ва фермерлардан 2 миллион долларлик дуккакли маҳсулотлар харид қилиб, чет эллик буюртмачиларга етказиб бердим. Ўтган йил якунлари бўйича 160 миллион сўмлик солиқ қарздорлиги ҳисобланибди. Бу тизимдаги ўзгаришлар туфайли ҳосил бўлган. Тўғри, бунда ўзимиз ҳам айбдормиз. Бу янгиликдан бехабар қолибмиз. Аммо солиқчилар бу ҳақда олдинроқ огоҳлантиришганида ушбу муаммо юзага келмасди. Ҳозир шу масалада ёрдам сўрадим.

Давлат солиқ қўмитаси, унинг вилоят бошқармаси масъуллари шу ернинг ўзида инвестор масаласини ўрганиб, амалий ёрдам кўрсатадиган бўлди. Термиз шаҳрида ўтган учрашувда 50 дан ортиқ мурожаатлар кўриб чиқилди.

Ишчи гуруҳининг тадбиркор ва инвесторлар билан навбатдаги учрашув манзили Денов тумани бўлди. Бу ерда Денов, Шўрчи, Олтинсой, Узун, Сариосиё туманларидан келган тадбиркорларнинг мурожаатлари кўриб чиқилди. Шу тариқа, биринчи куннинг ўзида вилоятдаги ўнта ҳудуддаги ишбилармонларни ўйлантираётган масалалар атрофлича ўрганилди. Уларни имкон қадар туманлар даражасида ҳал этиш чора-тадбирлари кўрилди.

Юзма-юз мулоқотларда айтилганидек, агар мавжуд имконият ва салоҳиятдан унумли фойдаланиб, аҳолининг ташаббуслари қўллаб-қувватланса, бизнесда дуч келаётган тўсиқлар ўз вақтида олиб ташланса, иқтисодий кўрсаткичлар кундан-кунга яхшиланиб бораверади.

**Саид РАҲМОНОВ,**
**Илҳом РАҲМАТОВ,**
**«Халқ сўзи» мухбирлари.**

# ЭНГ КАМ ОЙЛИК ИШ ҲАҚИ ОШИРИЛМАДИ

## БАЛКИ, МАЗМУНАН БИР ХИЛ ТУШУНЧАЛАРГА ОЙДИНЛИК КИРИТИЛДИ

1

Бундан ташқари, меҳнатга ҳақ тўлаш соҳасида мазмунан бир хил, лекин таркиби ҳамда миқдори бўйича турлича бўлган "энг кам ойлик иш ҳақи" ва "меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори" тушунчаларини қўллаш қонун ҳужжатларидан фойдаланишда сезиларли хатоликларга олиб келмоқда.

Бу борада хориж тажрибаси бошқачароқ. Хусусан, Россия Федерациясида иш берувчи томонидан ходимга тўланадиган энг кам ойлик иш ҳақи миқдорини акс эттирувчи "ҳудудий", меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдоридан келиб чиқиб ҳисобланадиган солиқлар, йиғимлар, жарималар ва бошқа тўловлар учун "ҳисобланган" ҳамда вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик бўйича нафақалар, ҳомиладорлик нафақаси ҳамда шунга ўхшаш ижтимоий тўловларни ҳисоблашда қўлланилувчи "федерал" меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорлари мавжуд.

Президент Фармони айнан меҳнатга ҳақ тўлаш миқдорларини аниқлаш тартибини такомиллаштириш ҳамда меҳнатга ҳақ тўлаш, пенсиялар тайинлаш ҳамда солиқлар, давлат божлари, жарималар, йиғимлар ва бошқа тўловларни ундириш ўртасидаги шартларнинг боғлиқлигини бартараф этиш мақсадида қабул қилинган муҳим ҳужжатдир. Мазкур Фармонга кўра, 2019 йил 1 сентябрдан бошлаб "энг кам ойлик иш ҳақи" ўрнига **меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори** (577 170 сўм), **базавий ҳисоблаш миқдори** (202 730 сўм), **пенсияни ҳисоблашнинг базавий миқдори** (202 730 сўм) жорий этилади.

Энди ушбу миқдорларга алоҳида тўхталиб ўтсак.

**Меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори (МҲТЭКМ).** Меҳнат муносабатлари соҳасида лавозим маоши, устамалар, гонорар, қўшимча иш учун компенсация тўловлари ва рағбатлантирувчи тусдаги тўловларнинг бошқа турлари, шунингдек, қонунчиликда белгиланган ушланмалар, илгари энг кам иш ҳақига нисбатан белгилаб қўйилган бошқа тўловлар миқдорини аниқлашда ҳамда оилаларнинг ижтимоий қўллаб-қувватлашга муҳтожлиги ва ишсизлик бўйича нафақалар миқдорини аниқлашда қўлланилади. Бу нима дегани? Мисол учун, Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 21 декабрдаги "Халқ таълими ходимлари меҳнатига ҳақ тўлашнинг такомиллаштирилган тизимини тасдиқлаш тўғрисида"ги қарорига мувофиқ, умумтаълим муассасалари ўқитувчиларига қўшимча ҳақ тўловлари энг кам ойлик иш ҳақига нисбатан синфдаги ўқувчилар сонига қараб, синф раҳбарлиги учун 31 нафар ва ундан кўп ўқувчи бўлганда 100 фоиз миқдорида белгиланган.

Агар ушбу миқдорни қабул қилинган тартиб асосида ҳисоб-китоб қилсак, унда МҲТЭКМ нисбатан синфдаги ўқувчилар сонига кўра синф раҳбарлиги учун 31 нафар ва ундан кўп ўқувчи бўлганда 35 фоизни (202730/577 170 сўм x 100%) ташкил қилади.

**Базавий ҳисоблаш миқдори (БҲМ).** Солиқлар, йиғимлар, жарималар, давлат божлари ва кўрсатилаётган давлат хизматлари учун бошқа тўловларнинг миқдорларини ҳамда тадбиркорликнинг муайян тури билан шуғулланиш учун патент, лицензия ва бошқа тўловларнинг қиймати, ташкилотларнинг устав ёки бошқа фондлари (капитали) миқдори, пулсиз шаклда тўланадиган акциялар, бошқа қимматли қоғозларнинг қиймати, юридик шахслар активларининг баланс қиймати, микрокредитлар ва лизинг каби молиявий-иқтисодий кўрсаткичларнинг чекланган миқдорини аниқлашда қўлланилади. Яъни Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини юритиш тартибини бузиш мансабдор шахсларга энг кам ойлик иш ҳақининг (202 730 сўм) беш бараваридан ўн бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлиши белгиланган бўлиб, ҳозир ушбу шартларда жарима базавий ҳисоблаш миқдори (БҲМ)га боғланади. Чунки БҲМ суммаси ЭКОИҲ суммасига тенг. Шунингдек, давлат божлари ва давлат хизматлари учун тўловларни ҳисоблашда БҲМдан фойдаланилади.

**Пенсия ҳисоблашнинг базавий миқдори (ПҲБМ).** Пенсия таъминоти соҳасида пенсиялар, устамалар, қўшимча ҳақ ва компенсация тўловлари, шунингдек, ходимларнинг меҳнатда майиб бўлиши, касб касаллигига чалиниши ёки улар ўзлари меҳнат вазифаларини бажариш билан боғлиқ ҳолда соғлиғи бошқача тарзда шикастланиши сабабли етказилган зарарни қоплашда қўлланилади. Масалан, I гуруҳ уруш ногиронлари пенсиясига энг кам ойлик иш ҳақининг 150 фоизи (202 730*150%=304 095 сўм) миқдорида устама ҳақи белгиланган бўлиб, ҳозирги кунда ушбу шартларда ПҲБМнинг 150 фоизи (202 730*150%=304 095 сўм) миқдорида устама ҳақини ташкил этади.

Шу билан бирга, энг кам ойлик иш ҳақига нисбатан белгиланган устамалар, қўшимча ҳақ, мукофотлар ҳамда бошқа компенсация ва рағбатлантирувчи тусдаги тўловларнинг барча турлари мазкур тўловларнинг сўмда ифодаланган амалдаги миқдорларини сақлаб қолган ҳолда қайта ҳисоб-китоб қилинади (зарур ҳолларда кўп томонга яхлитланади), яъни юқоридаги барча тўловларнинг сўмдаги миқдори ўзгармайди.

**Нўъмон ЖЎРАЕВ,**
**Молия вазирлиги Бюджетни тузиш ва ғазначилик ижроси, ички аудит ва молиявий назорат методологияси бошқармаси бошлиғи.**

# ОРОЛ МУАММОСИ ЕВРОПА ИТТИФОҚИ ДИҚҚАТ МАРКАЗИДА

1

Жамғарма Оролбўйи минтақасида экологик ва ижтимоий-иқтисодий вазиятни яхшилаш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш доирасида халқаро ҳамкорликни ривожлантириш ва донорлар маблағларини сафарбар қилиш, барқарор ривожланишнинг глобал мақсадларига эришиш юзасидан ҳамкорликдаги саъй-ҳаракатларни ривожлантириш учун ягона майдон бўлиб хизмат қилади.

Ўзбекистон ташаббуси билан Орол муаммоларини бартараф этиш йўлида муҳим қадамлар қўйилмоқда. Бу ташаббуслар нуфузли халқаро ташкилотлар томонидан қўллаб-қувватланмоқда. Жорий йилнинг 22 март куни Женева (Швейцария) шаҳрида БМТ Европа Иқтисодий Комиссиясининг барқарор ривожланиш бўйича минтақавий форуми доирасида «Инсонлар учун ҳамкорлик: Оролбўйи минтақаси учун инсон хавфсизлиги бўйича кўп шериклик фонди» мавзуида анжуман ўтказилди.

Анжуман доирасида Оролбўйи минтақаси учун инсон хавфсизлиги бўйича кўп томонлама шериклик траст фондининг мақсад ва вазифаларига бағишланган тақдимот ўтказилди, ҳамкорлик доирасини кенгайтириш ва ривожлантириш масалалари муҳокама қилинди.

Жорий йилнинг 1 апрель куни Норвегия ҳукумати ва мазкур жамғарма ўртасида шартнома имзоланди ва Норвегия жамғармага маблағ киритган биринчи ташқи донор сифатида рўйхатга олинди.

Тақдимотда таъкидланганидек, айни кунларда Европа Иттифоқидан ташқари, Япония, Туркия, Бирлашган Араб Амирликлари ва қатор давлатлар томонидан жамғармада иштирок этишга қизиқиш билдирилмоқда.

— Европа Иттифоқи БМТ қошида ташкил этилган траст фондга 5 миллион евро миқдорида маблағ ажратишга қарор қилди, — дейди Европа кенгаши Президентининг маслаҳатчиси Франсуа Бежо. — Жамғарма вакилларининг бугунги тақдимоти бизда катта таассурот қолдирди. Биз ҳамкорликни изчил ривожлантириш тарафдоримиз. Зеро, Орол фожиаси жуда жиддий муаммо. Денгиз чекинган бўлиши мумкин, аммо одамлар ҳеч қаерга кетгани йўқ, улар шу ерда яшашда давом этмоқда. Демак, инсонларга ёрдам бериш, уларни қўллаб-қувватлаш борасидаги саъй-ҳаракатларимиз шунга қаратилади.

**Ғайрат ХОННАЗАРОВ,**
***ЎзА мухбири.***

# ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ ҚАЧОН АРЗОНЛАШАДИ?



*Кейинги пайтда Ўзбекистон бамисоли улкан қурилиш майдонига айланди. Шаҳару қишлоқларимизда юзлаб уй-жойлар, кўплаб йирик саноат объектлари, замонавий йўл ва кўприклар, ҳатто, номларига "city" ибораси қўшилаётган замонавий шаҳарчалар барпо этиляпти. Буларнинг барчаси бунёдкорлик кўлами кун сайин кенгайиб бораётганидан далолат беради. Статистик маълумотларга қараганда, фақат охирги икки йил ичида қурилиш ишлари ҳажми 1,7 баробар ошган.*

**Таҳлил**

Бу қувонарли ҳол, албатта. Бироқ бино-иншоотларнинг тез қурилиши, мустаҳкам бўлиши, энг асосийси, таннархининг ошиб кетмаслиги кўп жиҳатдан қурилиш материаллари сифати ва баҳосига боғлиқ. Бошқача қилиб айтганда, саноатимизнинг муҳим тармоғи — қурилиш индустриясининг реал ҳолати, мавжуд салоҳияти, имкониятлари ҳамда улардан қай тарзда фойдаланишга бориб тақалади. Шунинг учун бугун тармоқ корхоналарини модернизациялаш, импорт ҳажмини камайтириб, экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш, янги қувватларни ишга тушириш, пировардида ички бозорда қурилиш материаллари нархи ошиб кетишининг олдини олишга жиддий эътибор қаратилмоқда.

Яқинда Президентимиз Шавкат Мирзиёев қурилиш материаллари ишлаб чиқариш саноатини янада ривожлантириш бўйича устувор вазифаларга бағишланган йиғилишда айни шу масалага тўхталиб, жумладан, шундай деди: "Мамлакатимизда бунёдкорлик ишлари тобора ортиб бораётган бугунги кунда қурилиш материаллари иқтисодиётнинг етакчи тармоғига, ўсиш нуқталаридан бирига айланиши керак. Корхоналарда энергия самарадор технологияларни жорий этиш орқали табиий бойликларимизни тежаш, материаллар нархини тушириш мумкин".

Шундай экан, кейинги пайтда тубдан ислоҳ қилинаётган саноатимизнинг ушбу жабҳасида қандай ўзгаришлар кузатилмоқда? Янгидан ташкил этилган "Ўзсаноатқурилишматериаллари" уюшмаси тизимида ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, маҳсулот таннархини пасайтириш юзасидан қандай чора-тадбирлар кўрилмоқда?

Бу саволлар жавоби табиатан бунёдкор бўлган, уй-жой қуриш, ҳудудни обод қилиш севимли машғулотига айланган халқимизнинг барча вакилини қизиқтириши турган гап. Ахир, миллий одатларимизга кўра, бошпана қуриш ташвиши ҳар бир ўзбек оиласида фарзанд туғилган кунданоқ бошланади.

Маълумотларга қараганда, тизим корхоналарида 2016 йилда 120 турдаги қурилиш материаллари ишлаб чиқарилган бўлса, 2017 йилда ушбу кўрсаткич 180 турдан ошди. 2018 йилда эса керамик плитка, сантехника маҳсулотлари, керамогранит, сендвич-панеллар, юмшоқ том материаллари, композит арматура, суюқ гулқоғозлар, иссиқликни ўтказмайдиган материаллар каби яна ўндан ортиқ янги турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқариш ўзлаштирилиб, улар қаторига қўшилди. Натижада республикамиз қурилишида ишлатиладиган материалларнинг 95 фоизи айнан маҳаллий корхоналар томонидан етказиб берилмоқда. Шундай бўлса-да, керамик ва ёғоч-қипиқ плиталар, ойна, гулқоғоз ва бошқа материаллар импорт қилинаётгани Ўзбекистонда замонавий қурилиш материаллари ишлаб чиқариш ҳажмини янада оширишни тақозо қилаётир. Бунинг учун эса имконият ҳам, салоҳият ҳам етарли.

Уюшмадан маълум қилишларича, айни шу мақсадда изланиб 2019 йилнинг биринчи чорагида 918,9 миллиард сўмлик қурилиш материллари ишлаб чиқарилган бўлса, маҳаллийлаштирилган маҳсулотлар умумий қиймати 39,3 миллиард сўмни ташкил этган. 1,722 миллион тонна цемент тайёрланган.

Цемент соҳадаги энг асосий маҳсулот ҳисобланади. Бунёдкорлик ишларининг кўпайиши туфайли, энг аввало, ушбу маҳсулотга бўлган талаб кескин ортди. Ушбу эҳтиёж тўлиқ таъминланиши тизимдаги йирик қувватлар — "Қизилқумцемент", "Қувасойцемент", "Оҳангаронцемент" акциядорлик жамиятларининг барқарор фаолиятига боғлиқ.

Маълумки, мазкур ишлаб чиқариш корхоналари кўп йиллар илгари ишга туширилган бўлиб, мунтазам равишда техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, модернизациялаш тадбирларини ўтказишни талаб этади. Шу боис давлатимиз раҳбари ўтган йилнинг март ойида Навоий вилоятига ташрифи чоғида "Қизилқумцемент" АЖ технологик тармоқларини босқичма-босқич модернизациялаш, техник қайта жиҳозлашни изчиллик билан давом эттириш, экспортга йўналтирилган маҳсулотлар тури ва ҳажмини кенгайтириш борасида тегишли мутасаддиларга 10 йиллик "Йўл харита"сини ишлаб чиқиш топшириғини берган эди.

Қурилиш ташкилотларига арзон ва узлуксиз цемент етказиб берилишида мазкур жамиятнинг роли катта. Нега деганда, мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган цементнинг қарийб тенг ярми ушбу объект улушига тўғри келади. Масалан, биргина ўтган йили 3 миллион 571 минг тонна цемент етказиб берилган.

Таҳлилларга кўра, бу кўрсаткични янада ошириш имконияти мавжуд. Шу мақсадда 2018 йилда сиғими 120 минг тонналик оҳактош омбори қурилиб, замонавий ускуналар ўрнатилган. Бундан ташқари, юқори самарали сепаратор қурилмасини ўрнатиш ҳамда цемент майдалаш жараёнини ёпиқ циклга ўтказиш орқали 7-сонли цемент тегирмонида модернизациялаш тадбирлари бажарилган. "Йўл харитаси" асосида бу борадаги ишлар давом эттирилаётгани қувонарлидир.

Яна нарх-навога қайтсак, қурилиш материаллари қачон арзон бўлади?

Бозор иқтисодиёти шароитида нарх-наво талаб ва таклиф уйғунлигида шаклланиши икки карра икки тўртдек аниқ-равшан масала. Таклиф кам, талаб аксинча юқори бўлса, ҳар қандай маҳсулотнинг баҳоси ошиб кетаверади. Демак, қурилиш материаллари, хусусан, цементга эҳтиёж юқори экан, ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш ва унинг сифатини ошириш зарур. Соҳада айни шу йўлдан борилаётгани алоҳида эътиборга моликдир.

Гап шундаки, шу йилнинг ўзида Қорақалпоғистон Республикаси, Сурхондарё, Андижон ва Навоий вилоятларида 4 та цемент корхонаси ишга туширилиши белгиланган. Ҳар бирининг қуввати 2 миллион тонна цемент тайёрлашга мўлжалланган. Йил якунига қадар янги заводларнинг 3,5 миллион тонналик қувватлари фойдаланишга топширилгач, йиллик ишлаб чиқариш салоҳияти 15 миллион тоннага етказилади. Бу цементга бўлган ички талабни тўлиқ таъминлаб, нархини арзонлаштириш имконини беради, албатта.

2019-2020 йилларда соҳада 17 триллион сўмлик мингдан зиёд лойиҳаларни амалга оширилиши режалаштирилган бўлса, уларнинг бир қанчаси ижросига аллақачон киришилган. Жиззах вилоятининг Зафаробод туманида қурилиши бошланган цемент заводи шулардан бири ҳисобланади.

Хитой Халқ Республикасининг "Хуасин цемент" компанияси томонидан барпо этиладиган мазкур корхонанинг лойиҳавий қиймати 300 миллион долларга тенг бўлиб, шу йил охиригача унинг биринчи босқичини ишга тушириш режалаштирилган. Бунинг ҳисобига йилига 1 миллион 200 минг тонна "М-500" маркали цемент ишлаб чиқарила бошланади.

Соҳада таркибий ўзгаришлар норентабел корхоналарни тугатиш, рақобатга дош бера олмайдиган маҳсулот ишлаб чиқараётган корхоналар ихтисослашувини ўзгартириш тадбирлари билан қўшиб олиб борилиши мақсадга мувофиқ. Бу жараёнда импорт ўрнини босадиган маҳсулотлар ишлаб чиқарадиган корхоналарни ташкил этиш, ғоят бой маъданхом ашё ресурсларидан самарали фойдаланиш, шунингдек, ишни ташкил қилишнинг янги бошқарув усуллари ва технологияларини жорий этиш лозим.

Умуман олганда, қурилиш материаллари саноатида рақобатдошликни ошириш тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этишни жадаллаштириш, узоқ муддатли кредитлар ва лизинг шартномалари асосида юқори техника ва технологияларнинг трансферини янада ошириш, тизимда ўзаро кооперация ва интеграция алоқаларини ривожлантириш, ҳудудлараро кластер тизимини жорий этиш механизмларини шакллантириш зарур. Бунинг ҳисобига энергия ва ресурс тежамкорликка эришиш, атроф-муҳитга чиқарилаётган заҳарли чиқиндилар ҳажмини пасайтириш мумкин.

Аслида, қурилиш материаллари саноатининг бугунги аҳволи ҳам ёмон эмас. Тизим корхоналари томонидан ишлаб чиқарилаётган керамик плитка, сантехника, қуруқ қурилиш аралашмалари, гипсокартон, пишиқ ғишт, табиий тошдан қоплама маҳсулотлар, оҳак, полипропилен қувурлар, фитингларга ташқи бозорда талаб ортиб бормоқда. Улар Россия, Украина, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон, Афғонистон каби давлатларга экспорт қилинмоқда. Бироқ ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятини ошириш учун ички имкониятлар ҳали тўлиқ ишга солингани йўқ. Бугун давлатимиз раҳбари томонидан соҳа олдига қўйилаётган талаб ҳам шу: қурилиш материаллари тармоғида энергия тежайдиган илғор технологияларни жорий этиш орқали таннархни камайтириш, ишлаб чиқаришни кескин оширишдир. Шундай экан, мамлакатимиз қурилиш материаллари саноатига инновацион технологияларни татбиқ этиш жараёнида, аввало, юқори малакали кадрларни тайёрлаш эҳтиёжининг ортиб боришини инобатга олган ҳолда, олий таълим тизимига чет элдаги ихтисослаштирилган компанияларнинг етакчи мутахассисларини жалб қилиш ҳам долзарблик касб этаверади.

**Равшан НУРИМБЕТОВ,**
**Тошкент архитектура-қурилиш институтининг илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор.**



# Ўзбекистон — Ҳиндистон: ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ТУТАШ АЗАЛИЙ ДЎСТ ВА ҚАДРДОН ДАВЛАТ



Эрамиздан аввалги III-II асрларда Буюк Ҳиндистон йўли ҳинд заминини Марказий Осиё билан боғлагани яхши маълум. Бугун ҳам Марказий ва Жанубий Осиё бозорлари ўртасидаги ишончли савдо ва транспорт коммуникацияларини яратиш ҳар қачонгидан долзарбдир. Биз Трансафғон темир йўли лойиҳасини муҳокама қиляпмиз. Истиқболда бу йўл Жанубий Осиёга, жумладан, Чохбаҳор порти орқали Ҳиндистонга чиқиш имконини беради.

**Шавкат МИРЗИЁЕВ**

## Ҳамкорлик

Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасидаги алоқалар узоқ ўтмишга бориб тақалади. Зеро, ўзбек ва ҳинд халқларининг маданияти, урф-одат ва анъаналари ўхшаш, тарихий илдизлари туташдир. Икки азалий дўст мамлакат ўртасидаги ўзаро муносабатлар, айниқса, кейинги пайтда фаоллашиб, таъбир жоиз бўлса, янги босқичга кўтарилди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев Ҳиндистон томонининг таклифига биноан, ярим йил ичида икки марта ушбу давлатда бўлгани шундан далолат беради.

Олий даражадаги учрашувлар чоғида эришилган келишувлар самараси ўларок, Тошкент шаҳрида илғор ахборот технологиялари парки, Андижон вилоятида "Андижон-фарм" эркин иқтисодий зонаси ташкил этилаётган бўлса, юртимизда янги ўқув йилидан Ҳиндистоннинг иккита етакчи олий ўқув юрти — Амити ва Шарда университетлари фаолият бошлаши кўзда тутилган.

Давлатларимиз ўртасидаги муносабатларда, шубҳасиз, савдо-сармоявий алоқалар етакчи ўринни эгалайди. Гап шундаки, ҳозирги пайтда Ўзбекистонда ҳинд инвестицияси иштирокида ташкил этилган корхоналар сони 145 тага етди. Бундан ташқари, Ҳиндистон Эксимбанки томонидан ижтимоий муҳим лойиҳаларни молиялаштириш учун 200 миллион АҚШ долларилик кредит линияси ажратиш борасида амалий ишларга киришилаётгани эътиборга моликдир.

Жорий йил январь ойида Самарқанд шаҳри мезбонлик қилган "Ҳиндистон — Марказий Осиё" мулоқоти ташқи ишлар вазирларининг Афғонистон иштирокидаги биринчи учрашуви, айтиш мумкинки, қўшма ҳужжатларнинг изчил ижросини жадаллаштириб юборди. Хусусан, йиғилишда эришилган келишувга кўра, ўзбекистонлик бир гуруҳ оммавий ахборот воситалари ходимлари Марказий Осиё минтақаси журналистлари учун Ҳиндистонда ташкил этилган таништирув ташрифида қатнашди.

### Илк таассурот

...Ислом Каримов номидаги халқаро аэропорт. Тошкент — Деҳли йўналишида парвоз қиладиган "Airbus-320" самолётига йўловчилар чиқарила бошланиши эълон қилинди.

Биз, тўрт нафар журналист — телерадиоканаллар ва газета мухбирлари ҳам ҳаво лайнерига чиқиш тараддудидамиз. Бортга киргач, сафардаги ҳамроҳларимиз эътиборимизни тортди. Сабаби уларнинг деярли барчаси ҳиндистонликлар эди-да!

"Ҳамма рейсда ҳам шундай бўладими?", дея борт кузатувчисини гапга соламиз.

"Ҳа", дейди хотиржам оҳангда суҳбатдошимиз. Унинг айтишича, нафақат Деҳлига боргунча, балки Тошкентга қайтгунча ҳам йўловларнинг асосий қисми ҳиндистонликлардан иборат бўларкан. Туризмни ривожлантиришга қаратилаётган эътибор, хорижлик инвесторлар учун яратиб берилаётган қўшимча шарт-шароитлар туфайли давлатларимиз ўртасидаги борди-келди кўпайибди. Бу, ўз навбатида, Тошкент — Мумбай йўналишида ҳам янги рейс қатнови йўлга қўйилишига туртки бўлди. Агар айни пайтда Марказий Осиё минтақасида Ҳиндистонга тўғридан-тўғри авиақатновни фақат Миллий авиакомпаниямиз амалга ошираётганини инобатга олсак, бу қўшни давлатлар йўловчиларини ўзимиз томонга буриш учун яхши имкониятдир.

Замонавий самолётдаги сифатли хизмат, қулай шароит туфайли вақтнинг қандай ўтганини ҳам билмай, кўзланган манзилга етиб бордик. Сафаримиз Ҳиндистон ҳаётидаги муҳим сиёсий жараён — парламентга сайловлар бўлиб ўтаётган пайтга тўғри келди. Бу галги сайловда 900 миллион киши овоз бериши кутилаётган экан. Шу боис қарийб 19 миллион аҳоли истиқомат қилаётган пойтахт шаҳар — Деҳли янада гавжумлашган, ҳаёт қайнамоқда. Йўллар шунчалик тирбандки, бирор жойга бориш учун эртароқ ҳаракат қилмасангиз, кеч қолишингиз тайин. Шошаётган бўлсангиз, маҳаллий аҳоли тили билан айтганда, "тук-тук", яъни моторикшалар мушкулингизни осон қилади. Улар ихчамлиги боис тирбандликлардан осон ўтиб, манзилингизга таксидан ҳам тез етказади.

Кўчаларда хорижнинг транспортига деярли кўзингиз тушмайди. Йўлларда ҳаракатланаётган автомобиллар ҳам, ер усти метросидаги поездлар ҳам шу ернинг ўзида ишлаб чиқарилган. Бинобарин, ҳиндлар ҳар жабҳада ватанпарвар эканлигини намоён этишга одатланишган.

### 2025 йилга бориб...

Бугунги Ҳиндистон кинофильмлар орқали билганимиздек ўртаҳол мамлакат эмас, у улкан имкониятларга эга, саноати ривожланган, иқтисодиёти жуда тез тараққий этаётган давлатлардан бирига айланган. Буни тасаввур қилиш учун мамлакат ялпи ички маҳсулот ҳажми бўйича дунёда олтинчи ўринга чиқиб олганини келтириш кифоя. Бунга қандай эришилди, деган савол туғилиши табиий, албатта.



Экспертларнинг фикрича, ҳаёт учун кураш муваффақиятнинг бош омили ҳисобланади. 1,3 миллиард аҳолини боқиш, уларнинг ҳаётий эхтиёжини таъминлаш йўлидаги изланишлар рақобатдош иқтисодиёт шаклланишида туртки бўлди. Айниқса, ахборот технологиялари, дастурлаш, инновациялар, фармацевтика, тўқимачилик, чарм саноати, соғлиқни сақлаш, хизмат кўрсатиш соҳаларида етакчилар сафига қўшилганига анча бўлди.

Аҳоли нуфуси ўсиши эса давом этмоқда. Прогнозларга қараганда, 2025 йилга бориб, уларнинг сони 1,5 миллиард нафарга етади. Мамлакат бу демографик "бум"ни ортиқча ҳадикларсиз қарши олмоқда. Аксинча, катта имконият сифатида баҳолашмоқда. Негаки, ўша пайтда аҳолининг ўртача ёши 29 ни ташкил этади. Бу — дунёдаги энг ёш, катта меҳнат ресурсига эга давлат пайдо бўлмоқда, дегани-да! Шу боис ёш авлод таълим-тарбиясига устувор аҳамият берилиб, нафақат ички, балки ташқи меҳнат бозорида рақобатга кириша оладиган мутахассислар таёрланмоқда. Бунинг самараси эса ҳозирданоқ кўзга ташланаётир. Кўплаб ҳинд ёшлари қатор халқаро компанияларда муваффақиятли фаолият юритишмоқда.

Ҳиндистон Ташқи ишлар вазирлигида минтақа журналистлари билан ташкил этилган учрашувда вазир ўринбосари Гитеш Шарма жаҳон IT соҳаси учун ҳам малакали кадрлар етказиб беришда фаол эканликларини таъкидларкан, бугунги тадбирни расмий қабул эмас, балки яқин бирoдарларнинг дийдорлашуви сифатида қабул қилишимизни сўради. Бинобарин, тажрибали дипломатнинг Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистонга муносабати, меҳри бўлакча. У 2011 — 2014 йилларда мамлакатимизда Ҳиндистон элчиси сифатида фаолият юритган.

— Бизни минтақа, жумладан, Ўзбекистон билан қадим тарихий ва маданий алоқалар боғлаб туради, — деди Гитеш Шарма. — Шу билан бирга, бизнес муносабатлар, "people to people" форматидаги мулоқотлар, инвестициявий ҳамкорликни ривожлантириш орқали ўзаро алоқаларимизни янги босқичга кўтаришни даврнинг ўзи талаб қилмоқда.

### Газетанинг медиа майдондаги ўрнини ҳеч нарса боса олмайди

Инглиз тилидаги энг кўп газета қаерда чоп этилади? Буни биласизми? АҚШ, Буюк Британия десангиз янглишасиз. Негаки, ҳеч бир давлат бу борада ҳали-бери Ҳиндистон олдига туша олмаса керак.

Чиндан ҳам, бу ерда 70 минг номдаги миллионлаб нусхалардаги кундалик газеталар нашр этилади.

— Гарчи, кейинги пайтда онлайн нашрлар, телевидение тараққиётнинг янги-янги босқичларини забт этаётган бўлсада, медиа маконда газетанинг ўз ўрни борки, уни бошқа оммавий ахборот воситаси боса олмайди, — дейди Ҳиндистондаги энг йирик ахборот агентлиги — ANI ("Asian News International") директори ўринбосари Сужит Жаттержи. — Шунинг учун ахборот тарқатиш, материаллар улашишда айни жиҳатга эътибор қаратамиз. Хусусан, газеталар учун таҳлилий, мушоҳадали мақолалар тайёрлаш учун ҳаракат қиламиз.

Агентлик маҳаллий нашрлардан ташқари, хорижий матбуот билан мустаҳкам ҳамкорлик ўрнатган. Шу боис 1100 киши меҳнат қилаётган жамоада янги ходимни ишга қабул қилиш жиддий синов саналади. Бунда, айниқса, мақола ёзиш, интервью олиш салоҳиятига кўпроқ аҳамият берилар экан. Марказий Осиёдан ташриф буюрган 20 нафар журналист ҳамкасбимизнинг иш жараёнини кузатдик, бу ерда ижодий муҳит, яратилган шарт-шароитлар билан танишдик, ўзаро тажриба алмашдик. Шундан сўнг агентлик раҳбарияти ахборот алмашиб туриш, ижодий ҳамкорлик қилиш таклифини билдирди. Бу эса кўпчиликка манзур бўлди.

Бу мавзудаги муҳокамалар Ҳиндистон Ташқи ишлар вазирлиги ҳузуридаги Дипломатик хизмат институти ("Foreign Service Institute")да ҳам давом этди.

Аслида, мазкур институт дипломатлар тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишга ихтисослаштирилган бўлиб, унинг курсларида 1990 йилдан буён чет давлатлар дипломатлари ҳам мунтазам қатнашиб келмоқда. Ўзаро мулоқот чоғида тожикистонлик ҳамкасбимиз Нажмиддин Шоибодов халқаро муносабатлар соҳасида фаолият юритаётган журналистлар малакасини оширишни йўлга қўйиш керак, деган фикрни илгари сурди. Бу эса институт декани С. Мукул томонидан илиқ кутиб олинди.

— Саксондан ортиқ давлатлар билан алоқа ўрнатганмиз, — деди С. Мукул. — Ўзбекистон билан 2003 йилда ҳамкорлик бўйича англашув меморандуми имзолаганмиз. Яқин кунларда бир қатор хорижий давлатлар дипломатлари учун малака ошириш курслари очилади. Улар орасида Марказий Осиё мамлакатлари вакиллари ҳам бўлади. Ўйлайманки, бу Ҳиндистон ва минтақа давлатлари ўртасидаги алоқалар ривожида муҳим аҳамият касб этади.

### Йил давомида пишиқчилик

Ҳиндистон иқлими ўзига хос. Ҳавоси иссиқ, намлик нисбатан юқори. Апрель-май ойларига 42 даражали ҳарорат хос. Июль ойида бошланадиган ёмғирлар мавсумини айтмаса, қиш бўлмайди. Бу эса қишлоқ хўжалиги ривожида қўл келмоқда.

Тақдим этилган маълумотларга кўра, мамлакат аҳолисининг 60 фоизи аграр соҳада меҳнат қилади. Ғалла, шоли етиштиришда бой тажриба тўпланган. Ушбу зироатдан баъзи минтақаларда йилига уч марта ҳосил олинади. Мева-чева ҳам сероб. Йил давомида пишиқчилик. Ҳар қадамда олма, анор, анжир, узум, нок, банан, тарвуз, қовун, манго, ананас каби мева ва полиз маҳсулотлари сотилмоқда. Татиб кўрдик. Кўпчилик ижодкорларга тарвуз ва анжир маъқул келди.

Ҳинд замини қизғиш тусли, қумоқ бўлиб, ниҳол ўстириш кишидан алоҳида кунт ва меҳнат талаб қилади. Шундай бўлса-да, аҳолининг ниҳол қадаш, дарахт ўстиришга иштиёқи баланд. Йўл бўйлари яшилликка буркангани кишида шундай таассурот уйғотади. Ҳатто баланд иморатлар ва деворлар сиртида махсус гултувакларда турфа чечаклар ўстирилиб, ўзига хос ландшафт дизайни яратилганига гувоҳ бўлдик.

Умуман, кейинги пайтда мегаполис шаҳарларда экология, атроф-муҳит мусаффолигига эътибор кучайган. Ҳудудларни кўкаламзорлаштириш ишлари авжида. Бу эса хорижликларнинг тасаввурида қотиб қолган эски манзараларни ўзгартиришда айни муддао бўлмоқда. Масалан, шаҳар кўчаларида ахлат уюмлари, сочилиб ётган елим идишларга кўзингиз тушмайди. Елим халталар эса аллақачон истеъмолдан чиқарилган. Дўконларда харид қилинган маҳсулотлар экологик тоза идишлар — каноп ёки пахта матосидан тикилган сумка, қоғоз халтага солиб берилади. Елим сув идишлари ёрлиқлари ички тарафида эса ундан қайта фойдаланиш бўйича инновацион ечимлар таклифи ўрин олган. Мисол учун, уни кесиб гултувак ўрнида ишлатиш, "қорни"дан ёриб, қушлар учун дон-сув идиш ясаш чизмалар ёрдамида кўрсатилганки, буни ўзимизда ҳам қўлласак, фойдадан холи бўлмайди. Йўл бўйлари, жамоат жойларида эса елим идишлар ва бошқа маиший чиқиндилар учун алоҳида қутилар қўйилган.

Аксарият дарахт турлари тарвақайлаб ўсаркан. Терак каби тик наботот намуналари жуда кам. Бангалорда Ботаника боғидаги ўсимликлар дунёси билан танишиб, бунга яна бир карра ишонч ҳосил қилдик. Боғдаги энг "кекса"лиги айтилаётган икки юз йиллик дарахт ҳам тарвақайлаб кетган. Улар қайрағоч каби қуюқ сояси боис алоҳида қадрланади. Одамлар иссиқ забтига олганида шу каби серсоя дарахтлар остида яшил майсазорларда дам олишга одатланишган.

Боғ мутасаддиларига Ўзбекистонда минг йиллик арча ва чинорлар бор, дегандик, улар юртимизга келиш, бундай ноёб ўсимликларни ўз кўзлари билан кўриш истаги туғилганини яширишмади.

### «Apollo» тажрибаси юртимизда қўлланилади

Тиббиёт Ҳиндистон тараққиётининг "ташриф қоғоз"ларидан бирига айланган, десак, муболаға эмас. Эътиборлиси, бу соҳа хусусий сектор эвазига ривожланиш пиллапояларини тезкорлик билан босиб ўтмоқда. Масалан, Марказий Осиё давлатлари журналистлари ташриф буюрган "Apollo" шифохонаси ҳам ушбу жабҳада машҳур хусусий тиббиёт муассасаси ҳисобланади.

750 ўринли мазкур клиника энг замонавий тиббиёт ускуна ва жиҳозлари билан таъминланган бўлиб, бу ерда пластик операциялардан тортиб, мураккаб жарроҳлик амалиётларигача бажарилади. Инсон ички органларини кўчириб ўтказиш, нейро ва кардиожарроҳлик, соч экиш, танадаги ортиқча ёғларни олиб ташлаш, оқ доғларни даволаш шулар жумласидандир. Бугунги кунда клиникада Ҳамдўстлик давлатларидан ҳам юзлаб беморлар келиб, шифо топиб кетишаётган экан. Айтайлик, Ўзбекистондан йилига ўртача 150 нафар киши мазкур муассасанинг тиббий хизматларидан фойдаланади.



— Ўзбекистон билан ўн йилдан буён ҳамкорлик қилиб келамиз, — дейди "Apollo" хусусий шифохонасининг МДҲ бўйича координатори доктор Мунир Аҳмад. — Ўнта шифохона билан мустаҳкам алоқа ўрнатганмиз. Биз муносабатларимизни янада мустаҳкамлаш ниятидамиз. Яқинда ўзим мамлакатингизга бориб, беморларни кўрикдан ўтказиш, тиббий-маслаҳатлар беришда иштирок этмоқчиман.

Айни пайтда клиникада тўрт минг киши меҳнат қилади. Жарроҳлар орасида АҚШ, Буюк Британия, Япония каби давлатлардан келган хорижлик мутахассислар ҳам бор. Муассаса раҳбариятининг айтишича, шифокорлар ичида Ўзбекистонда таҳсил олганлар ҳам талайгина. Ўзаро суҳбатларда қайд этилганидек, юртимизда хусусий тиббиётни ривожлантиришга қаратилаётган эътибор "Apollo" жамоасини ҳамкорлик қилиш, ўз тажрибаси билан ўртоқлашишга руҳлантирмоқда.

### Йирик саноат маркази

Ушбу таъриф Ҳиндистон жанубида жойлашган Карнатака штати маркази Бангалорга тегишли. Деҳлидан бу кентгача энг тезкор транспорт воситаси ҳисобланмиш самолётда уч соатлик йўл. Ҳавоси пойтахт билан қиёсланганда нисбатан салқин. Тарихий-маданий объектларга бой сўлим маскан. Бироқ унинг номини йирик саноат корхоналари дунёга овоза қилмоқда. "BEML" компанияси — шулардан бири.

Унинг ишлаб чиқариш салоҳияти шунчалик юқорики, Ҳиндистоннинг 67 минг километрлик темир йўлларида ушбу заводда ишлаб чиқарилган поезд ва вагонлар ҳаракатланади. Бундан ташқари, бу ерда тоғ-кон саноати техникалари, оғир юк машиналари, экскаватор, бульдозер, грейдер, катта юклагичлар, шунингдек, ҳарбий техникалар, ҳатто танк ишлаб чиқарилади.

Биз, журналистлар Ҳиндистон Мудофаа вазирлиги тизимидаги мазкур компаниянинг метро вагонлари ишлаб чиқариш цехида бўлиб, иш жараёни билан танишдик.

Ҳиндистоннинг IT соҳасидаги учта гигант саноат субъектидан бири — "Bharat Electronics" компаниясининг асосий ишлаб чиқариш мажмуаси ҳам Бангалорда жойлашган. 1954 йилда асос солинган мазкур мажмуанинг шиори халқаро бозорда етакчилар сафида туриш. Салкам 10 минг кишилик жамоа шу мақсад йўлида изланиб, бу борада ижобий натижаларга ҳам эришмоқда. Хусусан, электроника, назорат, кузатув, бошқарув ускуналари етказиб берувчилар рейтингида ТОП-100 таликнинг 59-поғонасига кўтарилган.

Айни пайтда мамлакатнинг турли ҳудудларида 9 та заводи фаолият юритаётган бўлиб, уларда тайёрланаётган маҳсулотлар тури 350 дан ошди. Биргина ўтган йили товар айланмаси 5 баробар ортган. Пировардида илгари асосий эътибор ички бозорни тўлдиришга қаратилган бўлса, эндиликда дўст мамлакатларга экспорт қилиш саъй-ҳаракатлари маъқулланмоқда.

Ҳиндистон — цивилизациялар ўчоғи, турли эътиқод ва маданиятлар туташган, кишини ўзига мафтун этадиган диёр. Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, бу ерга христиан дини милодий 58 йилда, ислом дини эса VI асрдаёқ кириб келган. Айтишларича, биринчи масжид 629 йилда бунёд қилинган. Ҳозирги пайтда кўплаб дин ва мазҳаблар вакиллари аҳил-иноқ умргузаронлик қилишмоқда. Зотан, мамлакатнинг биринчи таълим вазири Мавлоно Абул Калам Азад томонидан ташкил этилган Ҳиндистон маданий муносабатлар кенгаши ("Indian Council for Cultural Relations") бош директори Ахилеш Мишра айтганидек, бу давлатда олиб борилаётган ислоҳотлардан кўзланган мақсад фақат ҳинд маданиятини тарғиб қилишгина эмас, балки маданий мулоқот ва алмашинувлар орқали маданиятлараро англашув ва ҳурматга, маданий бағрикенгликка хизмат қилиш, барча учун умумий бўлган қадриятларни яратишдир.

— Марказий Осиё билан ҳамкорликнинг янги йуналишларини топиш устида изланмоқдамиз, — деди Ахилеш Мишра ўз сўзининг якунида. — Бу йил ушбу минтақага бағишланган йирик маданий фестиваль ташкил этиш ниятидамиз. Унда жуда бой маданий меросга эга Ўзбекистон учун алоҳида ўрин ажратилади.

Сафаримиз давомида ўзбек ва ҳинд халқларининг ўхшаш жиҳатлари кўплигига ҳар қадамда дуч келдик. Улар орасида бизни таъсирлантиргани ҳинд меҳмондўстлиги бўлди.

Гап шундаки, тележурналист ҳамкасбимиз Умид Ғофуров иккимиз биз жойлашган меҳмонхонада бўлиб ўтаётган тўй билан қизиқдик. Моника ва Нитешнинг висол оқшоми бўлаётган экан.

Чақирилмаган меҳмонларга кўзи тушган Нитешнинг отаси дарҳол ҳузурига чақирса бўладими?! Кутилмаган таклифдан иккиланиб, тўй эгаси олдига бордик. Шу пайт у патнисдан ширинлик олиб, бизга тортиқ қилди. Қизиғи, ўзимиз олишимизга унамасдан, урф-одатларига кўра, ошатиб қўйди! Сўнг турмуш ўртоғини чақириб, таништирди, саксондан ошган отасининг хоки пойини олди. Ҳатто эсдалик учун суратга тушишимизни сўради...

Бундай иззат-икром кўрсатилганидан бошимиз кўкка етди, тўғриси. Ҳинд ва ўзбек доимо бир-бирига талпиниб яшаши сабабларини англагандай бўлдик. Шу маънода, давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан 2020 йилда Ҳиндистонда Ўзбекистон маданияти йилини, Ўзбекистонда эса Ҳиндистон маданияти йилини ўтказиш, жорий йилда юртимизда Ўзбекистон — Ҳиндистон ёшлар фестивалини ташкил қилиш ташаббуси зўр мамнуният билан қарши олингани замирида ҳам ўзаро ҳурматнинг юқорилиги мужассам. Зеро, буларнинг барчаси вақт синовларида тобланган халқларимиз ўртасида мулоқотларнинг янги форматига ўтилаётганининг ёрқин исботидир.

Бир ҳафталик сафаримиз якунланиб, ортга қайтар эканмиз, "Marvah" киностудияси раҳбари Сандеп Марваҳнинг ушбу сўзлари қулоғим остида акс садо бера бошлади: "Ҳинд халқи, айниқса, санъаткорларининг Ўзбекистонга муҳаббати чексиз. Бу бизга Раж Капурдан мерос. Ўзим яқинда гўзал юртингизда битта фильм ва иккита клип суратга олиб қайтган бўлсам, орадан ҳеч қанча вақт ўтмай, яна соғина бошладим..."

**Саид РАҲМОНОВ,**
**«Халқ сўзи» мухбири.**
Тошкент — Деҳли — Бангалор — Тошкент

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ ВАЗИРЛИКЛАР, ДАВЛАТ ҚЎМИТАЛАРИ ВА ИДОРАЛАР ТОМОНИДАН ҚАБУЛ ҚИЛИНГАН НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРНИ ДАВЛАТ РЎЙХАТИДАН ЎТКАЗИШ ҲОЛАТИ ТЎҒРИСИДА 2019 ЙИЛ 30 МАРТДАН 5 АПРЕЛГАЧА БЎЛГАН МАЪЛУМОТНИ ХАБАР ҚИЛАДИ.

***I. Давлат рўйхатидан ўтказилди:***

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги директорининг 2019 йил 27 февралдаги 01/10-10/50-сон "Ўзбекистон Республикаси Риэлторлик хизматларининг миллий стандарти (1-сон РХМС) "Риэлторлик хизматлари сифатини назорат қилишнинг ички қоидаларига қўйиладиган умумий талаблар"га ўзгартириш киритиш тўғрисида"ги буйруғи.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2244-1. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2019 йил 16 мартдаги 5/19-сон "Ломбардлар фаолиятини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги низомнинг 9[1]-бандига ўзгартириш киритиш ҳақида"ги қарори.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 1291-9. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

3. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2019 йил 27 февралдаги 25-сон "Ўзбекистон Республикаси аудиторлик фаолиятининг миллий стандарти (70-сон АФМС) "Молиявий ҳисобот тўғрисидаги аудиторлик ҳисоботи ва аудиторлик хулосаси"га ўзгартиришлар киритиш ҳақида"ги буйруғи.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2844-1. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

4. Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги, Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг 2019 йил 14 мартдаги 01/10-10/53, 12-сон "Риэлторлик ташкилотлари учун жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш бўйича ички назорат қоидаларини тасдиқлаш ҳақида"ги қарорга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги қарори.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2257-3. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

5. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2019 йил 2 апрелдаги 146-мҳ-сон "Нотариуслар томонидан нотариал ҳаракатларни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги йўриқномага ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги буйруғи.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3113-1. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

6. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2019 йил 18 мартдаги 5-мҳ, 73-сон "Жисмоний ёки психик ривожланишида нуқсони бўлган ҳамда узоқ вақт даволанишга муҳтож болаларнинг уйда якка тартибда таълим олишларини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш ҳақида"ги қарори.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2691-1. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

7. Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги директорининг 2019 йил 19 мартдаги 01/10-10/55-сон "Давлат улушларини бошқариш бўйича ишончли бошқарувчилар фаолияти самарадорлиги мониторингини юритиш тартиби тўғрисида низомга ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги буйруғи.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 1394-9. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

8. Ўзбекистон Республикаси Капитал бозорини ривожлантириш агентлиги, Марказий банки Бошқарувининг 2019 йил 25 мартдаги 2019-25, 290-В-4-сон "Ўзбекистон Республикаси ҳудудида чет эл валютасидаги қимматли қоғозлар муомаласи, резидентлар томонидан чет эл валютасидаги қимматли қоғозлар сотиб олиниши, шунингдек, резидентлар чиқарган қимматли қоғозларнинг норезидентлар томонидан сотиб олиниши тартиби тўғрисидаги низомнинг 1-бандига ўзгартириш киритиш тўғрисида"ги қарори.

**2019 йил 2 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 1692-4. (2019 йил 2 апрелдан кучга кирди).**

### Хабар

9. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2019 йил 18 мартдаги 39-сон "Солиқ маслаҳатчиларининг малакасини ошириш тартиби тўғрисидаги низомнинг 2-иловасига ўзгартириш киритиш ҳақида"ги буйруғи.

**2019 йил 3 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2343-3. (2019 йил 4 апрелдан кучга кирди).**

10. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Миллий гвардияси, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2019 йил 14 мартдаги 11, 8, 5, 6, 23ҚҚ, 37-сон "Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида тинчлик ва уруш даврида тиббий кўрикдан ўтказишни ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарори.

**2019 йил 3 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3147. (2019 йил 4 апрелдан кучга кирди).**

11. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси, Марказий банки Бошқарувининг 2019 йил 6 мартдаги 2019-13, 300-В-5-сон "Нақд пул тушуми келиб тушишининг хронометражини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарор, шунингдек, унга ўзгартиришларни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида"ги қарори.

**2019 йил 3 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 1788-5. (2019 йил 4 апрелдан кучга кирди).**

12. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг 2019 йил 6 мартдаги 2019-14-сон "Товарларни (ишларни, хизматларни) реализация қилишдан олинган тушумни хронометраж кўздан кечиришни ўтказиш ҳамда камайтирилган тушум суммасидан солиқларни ҳисоблаб чиқиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарори.

**2019 йил 3 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3148. (2019 йил 4 апрелдан кучга кирди).**

13. Ўзбекистон Республикаси Капитал бозорини ривожлантириш агентлиги директорининг 2019 йил 15 мартдаги 2019-21-сон "Қимматли қоғозларнинг ҳосилаларини чиқариш ва муомалада бўлиш тартибига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги буйруғи.

**2019 йил 4 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 320-5. (2019 йил 4 апрелдан кучга кирди).**

14. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2019 йил 4 мартдаги 30-сон "Аудиторлик фаолияти тўғрисидаги маълумот шакли ва уни тўлдириш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида"ги буйруққа ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги буйруғи.

**2019 йил 4 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2515-3. (2019 йил 4 апрелдан кучга кирди).**

15. Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг 2019 йил 7 мартдаги 71-сон "Тиббий ихтисослашувнинг тегишли турини амалга ошириш учун зарур бўлган моддий-техник база, асбоб-ускуналар ва бошқа техник воситалар, шу жумладан, тиббий техникага энг кам талабларга қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги буйруғи.

**2019 йил 5 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2905-3. (2019 йил 6 июлдан кучга киради).**

16. Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг 2019 йил 15 мартдаги 72-сон "Тиббий фаолият амалга ошириладиган тиббий ихтисосликлар турлари номенклатурасига қўшимча киритиш ҳақида"ги буйруғи.

**2019 йил 5 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2908-2. (2019 йил 5 апрелдан кучга кирди).**

***II. Давлат реестридан чиқарилди:***

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси, Марказий банки Бошқарувининг "Нақд пул тушуми келиб тушишининг хронометражини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарори (рўйхат рақами 1788, 2008 йил 9 апрель), шунингдек, унга ўзгартиришлар (рўйхат рақами 1788-1, 2010 йил 21 июль), (рўйхат рақами 1788-2, 2013 йил 15 март), (рўйхат рақами 1788-3, 2015 йил 27 май), (рўйхат рақами 1788-4, 2017 йил 27 сентябрь).

**Адлия вазирининг 2019 йил 3 апрелдаги 152-мҳ-сон буйруғига асосан давлат реестридан чиқарилди.**

***Мазкур ҳужжат қонунчиликка ўзгартириш киритилиши ва/ёки янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан давлат реестридан чиқарилди.***

# ХАТОЛАРГА БЕФАРҚ ҚАРАШ ХАТО БЎЛАДИ

*Газетамизнинг жорий йил 1 май сонида “Миллий ғоя, миллий руҳ, миллий ўзлик мактаб дарсликларида тўлиғича акс этиши керак!” сарлавҳали мақола чоп қилинганидан сўнг таҳририятимизга юртдошларимизнинг айримларидан муносабатлари битилган мактублар келди. Уларни эътиборингизга ҳавола этишни лозим топдик.*


МИЛЛИЙ ҒОЯ, РУҲ, ЎЗЛИК
МАКТАБ ДАРСЛИКЛАРИДА ТЎЛИҒИЧА АКС ЭТИШИ КЕРАК!
Ватан тарихини ўқитишдан мақсад ватанпарварликни шакллантириш бўлиши керак. Ўқувчиларда фақат бугунги воқеаларга эмас, ўтмишга, тарихимизнинг аччиқ ва шонли саҳифаларига нисбатан дахлдорлик ҳиссини, миллатимизнинг бой тарихи билан фахрланиш туйғусини уйғотиш ўта долзарб вазифа бўлиб қолмоқда.

## Акс садо

**Бахтиёр ЭГАМҚУЛОВ, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети Тил маркази она тили ва адабиёти ўқитувчиси:**

— Бу жуда ҳам долзарб масала. Шу боис мен ҳам айрим жиҳатларни айтиб ўтишни жоиз, деб топдим. Дарсликларнинг ҳар тўрт йилда бир алмаштириб турилиши аслида илгариги нашрлардаги хатоларни тўғрилаш учун зарур эди. Амалда аксинча, хатолар нашрдан нашрга ўзгармай, ҳаттоки кўпайиб боргани кузатилади. Масалан, 9-синф “Адабиёт” дарслигида севимли шоиримиз Абдулла Ориповнинг машҳур “Сароб” шеъридаги

***Равон йўллар қаршингизда***
***турибди муштоқ,***
***Дерди бизга ҳарф ўргатган***
***ёш бир муаллим***

сатрлари “Баҳор” шеъридан олинган деб кўрсатиб келинади. Дарсликлар қанча қайта нашр этилса ҳам, бу хато тузатилмайди. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти томонидан 2017 йилда 10-синф ўқувчилари учун Б. Тўхлиев, Б. Каримов, К. Усмонова ҳаммуаллифлигида нашр этилган “Адабиёт” дарслигидаги айрим “кашфиётлар” ҳам антиқа. Дарсликнинг биринчи қисми 176-бетида Юсуф Хос Ҳожибга тегишли шеър бутунлай тушириб қолдирилади-да, унинг таърифи берилади. Дарсликнинг иккинчи қисмида Абдулла Ориповнинг “Юртим шамоли” шеърини шундай ўқийсиз:

***Йўлларда йилдирим мисоли елдим,***
***Эллар водийсига бошлади ҳавас.***
***Элвагай Ҳисорнинг бошига келдим...***

Ўз шеъридаги “еллар” сўзи “эллар”, “елвагай” сўзи “элвагай” бўлиб кетганидан шоир руҳи нечоғли озор чекиши мумкинлигини тасаввур этинг энди. Дарсликнинг 169-бетида “Жек Лондон” номининг “Лек Лондон” тарзида берилиши хатолар оролидаги унутилмас ҳодиса саналса керак. Э-ҳе, қай бирини айтай? Мен фаолиятим давомида олий ўқув юртига кириш учун абитуриентларни тайёрлаш асносида адабиёт ва она тили дарсликларидан жуда зада бўлдим, булар битта ёки иккита эмас, анча-мунча, барчасини белгилаб қўйганман. Барибир мавжуд хатолар тузатилмаяпти. Аксинча, янги нашрларда гўёки уларнинг сонини кўпайтириб бораверишучун мусобақа кетаётгандек.

“Ўқитувчилар ва ўқувчиларни қийнаётган муаммолардан яна бири дарсликлардаги назарий маълумотларнинг таълимнинг бошқа тизими — академик лицей, касб-ҳунар коллежлари дарсликларидаги маълумотлардан фарқ қилиши. Бундай фарқли жиҳатларни мактаб дарсликларининг ўзидан ҳам кўплаб топиш мумкин”, дейилади мақолада. Ҳақиқатан ҳам, бу ҳол она тили дарсликларида ҳам жуда кўп учрайди. Морфологиядан, феъл ва унинг вазифа шакллари, синтаксисдан сўз бирикмаси, ажратилган эга, феъл-кесим, қолаверса, уюшиқ-кесим билан боғлиқ ҳолда содда ва қўшма гапларга ажратиш каби масалалар нафақат ўқувчилар, баъзи ҳолларда ўқитувчилар учун ҳам тушунарсиз бўлиб қолаётгани сир эмас. Тилшунослик соҳасида назарий маълумотларни бир-бирига мувофиқлаштириш, бунда фақат дарслик муаллифлари нуқтаи назари билан чекланиб қолмаслик, ҳар бир грамматик қоидани тилшунослар, мутахассислар муҳокамасидан ўтказиб ягона хулосага келинганидан кейингина дарсликка киритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Шунда ўқувчи ҳам, ўқитувчи ҳам чалғимасдан билим олиш ва билим бериш имконига эга бўлади. Бу муаммолар тилшунослик фанининг пунктуация — тиниш белгилари бўлимига ҳам тегишли. Она тили дарсликларидаги машқларнинг ҳам берилаётган қоидаларга мослигини таъминлаш зарур. Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, ҳозирги кунда деярли ҳар бир вилоятда ижод мактаблари ташкил этилган ва этилмоқда. Бундай муассасаларнинг ҳар бирида она тили ва адабиёти, хорижий тиллар чуқурлаштириб ўқитилади. Демак, бу мактаблар учун алоҳида дарсликлар яратиш, уларда адабиётнинг шеърият, наср, драматургия каби турларидан чуқурроқ билим беришга қаратилган қўшимча қўлланма ва дарсликлар яратилишига ҳам эътибор бериш айни муддаодир.

**Олим ОДИЛОВ, Самарқанд вилоятининг Ургут туманидаги Чордара қишлоғи фаоли:**

— Кейинги пайтларда дарсликларнинг икки қисмга бўлинган ҳолда нашр этилаётгани талай тушунмовчиликларни келтириб чиқармоқда. Мисол учун, 8-синфда ўқиётган ўғлим Рамазон адабиёт дарслигининг биринчи қисмини олган эди. У тугаб, иккинчи қисмга ўтилганда қани энди ўша иккинчи қисм дарслик китобини топа олсам. Ҳар ёқларни қидириб кўрдим, бировлар нашриётга бориш керак, дейишади. Ўғлимга ҳам баҳона топилди, “Дарслик китоби йўқ”, деб уйга берилган вазифаларни бажармай қўйди. Олис бир қишлоқда яшаймиз, мактабимиз ҳам унчалик катта эмас, 300 нафарга яқин ўқувчилар ўқийди, холос. Шу мўъжазгина мактаб кутубхонасида ҳам ўғлимга керакли дарслик бўлмагани мени ниҳоятда ажаблантирди.

**Шаҳноза ОЛИМОВА, Тошкент вилоятининг Ангрен шаҳридаги 18-мактаб ўқитувчиси:**

— Менинг ўғлим Афрўз Ангрен шаҳридаги 34-мактабнинг 2-синфида ўқийди. Фарзандимнинг дарсликларига қараб, айрим мавзулар болалар ёшига нисбатан жуда катталиги, математик ҳисоб-китоблар қизиқарли расмлар кўринишида кам берилганини кўриб таажжубланаман. Ҳали улар бола-ку! Уларни овутиш осон, деб эмас, болани алдаб бўлмайди, деган масъулиятни олиб бу соҳага қадам қўйиш керак. Мана шу дарсликлар туфайли фарзандларимизнинг китобдан кўнгли қолиши менга алам қилади. Мен унинг китобни қаттиқ яхши кўришини хоҳлайман. Фарзандим аълочи ўқувчилардан бири. Китобни яхши кўришини сезиб юрардим, энди дарсликлардаги матн оғирлик қилиши унинг китобдан кўнглини қолдираётгани афсусланарли. Бундай дарсликлар билан дарс тайёрлашдан у энди эрина бошлади. Нима қилсам экан?

Газетхонларимиз томонидан дарсликлар ҳақида шундай фикр-мулоҳазалар оқими тўхтамаган кезларда давлатимиз раҳбарининг 2018 йил 28 ноябрдаги Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясида белгиланган устувор вазифаларни бажариш юзасидан “Ўзбекконцерт” давлат муассасасининг масъул ходимлари Фарғона, Андижон, Наманган вилоятларида бўлиб, у ердаги мусиқа ва санъат мактаблари, коллежларда таҳсил олаётган талаба-ёшлар ҳузурида бўлишгани ҳақида ҳам хабар келди. Тадбирда ижодий давра суҳбати, ёшлар ўртасида маҳорат дарслари ўтказилгани билан бир қаторда, Фарғона вилоятидаги санъат коллежи ўқитувчиси Набижон Раҳимов, Андижондаги ихтисослаштирилган санъат мактабининг хореография бўлими бошлиғи Наргиза Қаюмова ҳамда Наманган вилоятидаги санъат коллежи ўқитувчиси Дилдора Хўжаеванинг ўз соҳалари бўйича дарсликлар аҳволи ҳақидаги фикрлари эътиборимизни тортди.

“Вилоятларда миллий рақсларимиз бўйича махсус ўқув қўлланма ва дарсликлар етарли эмас, — дейилади унда. — Розия Каримованинг 2003 йилда чоп этилган “Ўзбек рақси” ва “Меросий рақслар” номли китобидан дарслик мақомида фойдаланишдан ўзга иложимиз қолмаяпти. Ҳолбуки, бизда устозлардан қолган катта мактабимиз, мукаммал асарларимиз бор. Мутахассислар уларни тўплаб, пухта дастур асосида дарслик яратишса бўлмайдими?”

Албатта, дарсликлар ҳақида билдирилаётган фикр-мулоҳазалар мажозан айтганда, музтоғнинг кўриниб турган қисми, холос. Бу борада баҳс-мунозара давом этиб, тегишли мутасаддилар ҳам ўз муносабатини билдиради, деган умиддамиз. Зеро, гап таълим-тарбия ҳақида борар экан, дарсликлардаги хатоликларга бефарқ қараш ярамайди. Акс ҳолда, бунинг ўзи тарихий хато бўлади.

**«Халқ сўзи».**

## Тиббиёт

# ИТАЛИЯЛИК ПРОФЕССОР САБОҒИ

*Бухоро вилояти юқумли касалликлар шифохонасида Италиянинг Торино шаҳри Гастроэнтерология ва гепатология маркази директори, профессор Марио Резетто маҳорат сабоқларини ўтказди.*

Марио Резетто вирус гепатологияси бўйича жаҳоннинг йирик экспертидир. У вирусли гепатит D пентавирусини аниқлаган олим саналади. Профессорнинг меҳнати халқаро даражада эътироф этилган. Чунончи, у Роберт Кох мукофоти билан тақдирланган.

Маҳорат сабоқлари жараёнида олим гепатит D вирусини ўрганиш натижалари, уни даволаш усуллари хусусида атрофлича тўхталди. Шифокорлар билан ўз тажрибасини баҳам кўрди. Профессорнинг юртимизга ташрифи соҳа ходимларининг касб малакасини ошириш нуқтаи назаридан фойдали бўлди.

**Истам ИБРОҲИМОВ («Халқ сўзи»).**

## Таълим

*Халқ таълими вазирлиги, Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги (JICA) ва “Digital Knowledge Co. Ltd” компанияси (Япония) таълимни бошқариш тизимини жорий этиш бўйича қўшма лойиҳага старт берди.*

# ҚЎШМА ЛОЙИҲАГА СТАРТ БЕРИЛДИ

Ушбу муассасалар вакиллари мазкур лойиҳани амалга ошириш бўйича баённомани имзолади.

Лойиҳа таълимни бошқариш тизимини жорий этиш орқали мактаб ўқитувчиларининг малакасини ошириш, юртимизнинг барча вилоятларида ягона таълим сифатини таъминлаш ҳамда давлат ва нодавлат мактабларида таълим сифатини юксалтиришга қаратилган.

Қиймати 1 миллион АҚШ доллари бўлган мазкур лойиҳа давлат-хусусий шериклик шаклида амалга оширилади. У “JICA” томонидан ажратилган грант ҳисобига молиялаштирилади.

“Digital Knowledge Co. Ltd” компанияси мутахассислари янги лойиҳани амалга оширишда қатнашади. Жумладан, лойиҳа доирасида мамлакатимизнинг барча вилоятида жойлашган 14 та пилот мактабида таълимни бошқариш тизими жорий этилади.

**«Халқ сўзи».**

# СОЛИҚ СОҲАСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИНГ АМАЛИЙ ИФОДАСИ НИМАЛАРДА АКС ЭТМОҚДА?

*Тошкент шаҳрида жорий йилнинг тўрт ойи мобайнида мол-мулк солиғи тўловчилар сони ўтган йилнинг шу давридагига нисбатан 8 651 тага кўпайгани бюджетга қўшимча 411 миллиард 91 миллион сўмдан зиёд маблағ тушишига замин яратди. Бунинг ўзига хос сабаблари бор, албатта. Аввало, 2019 йилдан эътиборан барча тадбиркорлик субъектлари, шу жумладан, айланмаси 1 миллиард сўмгача бўлган юридик шахслар учун мол-мулк солиғи, ер солиғи ва сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ тўлаш белгиланган, шунингдек, ушбу солиқ ставкаси аввалги 5 фоиздан 2 фоизга туширилгани муҳим омил бўлди.*

## Хизмат

Хўш, мазкур тартиб иқтисодиётимизга, тадбиркорларимизга қандай наф беради? Умуман, бундан кўзланган мақсад нима?

Айтиш жоизки, ушбу тартиб тадбиркорларга ортиқча солиқ солиш эмас, аксинча, мол-мулкидан унумли ҳамда оқилона фойдаланишни таъминлашга қаратилгани билан алоҳида ажралиб туради. Шундай қилиб, бу йилдан бошлаб микрофирмалар ва кичик корхоналар ишловчилар сони ёки реализация ҳажмидан қатъи назар, мол-мулк солиғи тўловчиларга айланишди. Ваҳолонки, илгари улар бундай солиқ тўлашмасди.

Солиқ кодексига асосан, юридик шахслардан олинадиган мол-мулк солиғининг солиқ солиш базасига кўчмас мулк бўйича ўртача йиллик қолдиқ қиймати, норматив (белгиланган) муддатда тугалланмаган қурилиш объектлари ва ишга туширилмаган асбоб-ускуналар бўйича тугалланмаган қурилишнинг ва ўрнатилмаган асбоб-ускуналарнинг, Ўзбекистон Республикаси норезидентларининг кўчмас мулк объектларига нисбатан ушбу мол-мулкнинг ўртача йиллик қийматлари киради.

Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқни тўлаш реализация бўйича айланмага боғлиқ эмас. Мол-мулк солиғини микрофирмалар ва кичик корхоналар чорак охирги ойининг 25-санасигача йиллик солиқ суммасининг тўртдан бир қисми миқдорида тўлайдилар. Буларга кирмайдиганлар эса ҳар ойнинг 10-санасигача йиллик солиқ суммасининг ўн иккидан бир қисми миқдорида тўловни амалга оширишлари лозим. Муддатида тугалланмаган қурилиш объектлари учун бу миқдор икки баравар ставкани ташкил қилади.

Тушунарли бўлиши учун фикримизни бир мисол билан давом эттирсак. Сергели туманидан рўйхатдан ўтган “Iqbol Baraka Tex” масъулияти чекланган жамиятига қарашли ишлаб чиқариш корхонасига жорий йилдан 1 миллион 373,4 минг сўм мол-мулк солиғи ҳисобланмоқда. Яъни корхона 68 миллион 667,6 минг сўмлик объекти учун шунча миқдорда мол-мулк солиғи тўлаши лозим. Бу қаердан келиб чиқмоқда? Жавоби оддий: объект нархининг икки фоизи ҳисобланса, кифоя.

Бугунги кунда мамлакатимизда солиқ соҳасида кўплаб янгиликлар татбиқ этилмоқда. Тартиблар соддалаштирилиб, солиқ тўловчилар ўртасидаги солиқ юки даражаси тенглаштирилаётгани соғлом рақобат муҳитини шакллантириш баробарида, табиий ресурслар ҳамда объектлардан самарали фойдаланишга хизмат қилаётгани билан аҳамиятлидир.

**Нормат ТУРСУНОВ, Тошкент шаҳар давлат солиқ бошқармаси бошлиғи.**

РЕКЛАМА ВА ЭЪЛОН

**Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги**
**давлат илмий-техника дастурлари доирасида бажарилиши 2019-2020 йилларга мўлжалланган инновацион лойиҳалар танловининг 11-турини эълон қилади.**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қурилиш материаллари саноатини тубдан такомиллаштириш ва комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорининг ижросини таъминлаш мақсадида Инновацион ривожланиш вазирлиги қурилиш материалларининг янги турларини яратиш, ишлаб чиқаришнинг технологик жараёнларини такомиллаштириш ҳамда мавжуд қурилиш материалларининг сифатини яхшилаш бўйича илмий тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишларини ташкил этиш учун навбатдаги инновацион лойиҳалар танловини эълон қилди.

Шу муносабат билан 2019-2020 йилларга мўлжалланган инновацион лойиҳалар танловининг «Архитектура, қурилиш, дизайн ва шаҳарсозлик фанлари» йўналиши бўйича белгиланган мавзуларда илмий тадқиқот лойиҳалари қабул қилинади.

**Маълумот учун тел.:** 71-256-34-37, 71-203-32-32.
**Қўшимча маълумот учун:** http://mininnovation.uz
Танловга ҳужжатлар 2019 йилнинг 31 июлигача қабул қилинади.

**Соҳа мутахассислари, тадқиқотчилар ва олимларни танловда фаол иштирок этишга чорлаймиз!**




Халқ сўзи
Народное слово

МУАССИСЛАР:
Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгаши, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгаши ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси

Бош муҳаррир Ўткир РАҲМАТОВ

2008 йил 15 январда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0001-рақам билан рўйхатга олинган. Нашр индекси — 229. Буюртма Г — 656. 57 503 нусхада босилди, ҳажми — 2 табоқ. Офсет усулида босилган. Қоғоз бичими А—2. Баҳоси келишилган нархда.

Газетамиз ҳақидаги маълумотларни юклаб олиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг.

ТЕЛЕФОНЛАР:
*Девонхона 71-233-52-55;*
*Котибият 71-233-10-28; Эълонлар 71-232-11-15.*

ISSN 2010-8788

Таҳририятга келган қўлёзмалар тақриз қилинмайди ва муаллифга қайтарилмайди.
Газетанинг етказиб берилиши учун обунани расмийлаштирган ташкилот жавобгар.
Газета таҳририят компьютер марказида терилди ҳамда оператор М. Бегмуратов томонидан саҳифаланди.
Газетанинг полиграфик жиҳатдан сифатли чоп этилишига “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси масъул. Босмахона телефони: 71-233-11-07.

МАНЗИЛИМИЗ: 100000, Тошкент шаҳри, Матбуотчилар кўчаси, 32-уй.
Навбатчи муҳаррир — Ш. Бўтаев.
Навбатчи — Д. Улуғмуродов.
Мусаҳҳиҳ — А. Султонов.

“Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси босмахонаси. Корхона манзили: Буюк Турон кўчаси, 41. ЎзА якуни — 02.50 Топширилди — 03.55 1 2 3 4 5 6